



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

MUSIQA KAFEDRASI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Pedagogika-psixologiya”

Fakulteti dekani _____ dots. T.Rasulov

“ _____ ” _____ 2012 yil

5141000- “Musiqiy” ta’lim yo’nalishi 4- kurs 407-guruh talabasi

KAMOLA XAMRO qizining

**«Musiqi madaniyati darslarida bolalar musiqa tuyg’usini rivojlantirish va
takomillashtirish» mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Talaba: _____ Kamola Xamro qizi

Ilmiy rahbar: _____ dots.A.Rahmonqulov

“ _____ ” _____ 2012 yil

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Musiqi kafedrasi mudiri

katta o‘qt. _____ R. Primov

“ _____ ” _____ 2012 yil

Qarshi – 2012 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	3
 I. BOB. Musiqa madaniyati darslarida bolalar musiqa his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning tashkiliy pedagogik asoslari	
1.1. O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish va badiiy didini o'stirishda yangi ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar.....	10
1.2. O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda ta'lim jarayonining mazmuni.....	19
 II. BOB. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning uslubiy vositalari.	
2.1. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning tashkiliy jarayoni.....	35
2.2. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishning usul va yo'llari.....	43
 Xulosa.....	58
 Foydalanilgan adabiyotlar.....	60
 Ilovalar.....	62

Kirish

Muammoning dolzarbligi. Barkamol avlodni ma'naviy ongini shakllantirishda barcha fanlar qatori musiqaning ham alohida o'rni bor. Bugungi kun musiqa ta'limining eng muhim maqsadlaridan biri nazariy va amaliy jihatdan bilimli, ijodkor, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdir. Shu bois musiqa ta'limining sifat va samaradorligini oshirishning turli metodik jarayonlarini yangi ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar asosida ishlab chiqish malakalari alohida mavzu sifatida tahlil etilmoqda. Shuningdek, musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda ularning psixologik-fiziologik xarakterlariga oid hamda yosh xususiyatlariga mos musiqiy asarlar haqida ma'lumotlarni umumiashtirish, o'rganish va tahlil qilish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Musiqa inson hissiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, o'quvchilarni nafosat olamiga olib kirish va ahloqiy - g'oyaviy tarbiyalashning muhim vositasidir. Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu-Nosir Al-Farobiy «Bu fan tanning sog'ligi uchun foydalidir», degan edi, bobomiz Shayx Sa'diy esa «Musiqa odam ruhining yo'ldoshidir» deb ta'kidlaydilar. Musiqa insonga tez ta'sir etuvchi emotsional hissiyotni rivojlantiruvchi vositadir.

Musiqa ta'limi o'quvchi - yoshlarga nafaqat qo'shiq kuylash, musiqa tinglash malakalarini shakllantiradi, musiqiy savodxonligini o'stiradi. Shuningdek musiqiy qobiliyatini tarbiyalashda hissiyotni o'stirishda, diqqat, xotirani rivojlantirishda, taassurot olamini boyitishi, tafakkur ko'lamini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz I.A.Karimov o'zlarining «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch» nomli asarlarida «Musiqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Mashhur tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining «Zafarnoma» kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida to'xtalib, «Yaxshi ovozli xonandalar kuylashni boshlab, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mo'g'ul, xitoyu arab va ajamdin har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi» degan ma'lumotlarni keltiradi»¹ deb ta'kidlaydilar.

Bugungi kunda o'quvchi-yoshlarga badiiy-estetik tarbiyani shakllantirish, hissiy tuyg'ularni rivojlantirish borasida izlanishlar olib borish, shuningdek, umumta'lim maktablarida musiqa madaniyati darslarini zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish musiqa pedagogikasining asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, «Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi» talablari asosida ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlar umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi boshqa o'quv fanlari qatori musiqa madaniyati fanining o'qitilishini ham tubdan

yangilashni talab etmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida musiqa madaniyati fanini o'qitilishining asosiy maqsadi, o'quvchilarni ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirish, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishdan iboratdir. Shuning uchun maktabdagi «musiqa madaniyati» fani o'quvchilarni faqat ahloqiy-estetik jihatdan emas, balki har tomonlama tarbiyalash va kamol toptirishning yo'li deyish mumkin. Bugungi kunda umumta'lim maktablarida olib borilayotgan «musiqa madaniyati» darslarining mazmun va mohiyati zamonaviy pedagogik texnologiyalarga asoslangandir.

Uzviylashtirilgan Davlat Ta'lim Standartlari va o'quv dasturi asosida olib borilishiga qaratilgandir. Chunki bugungi kun musiqa ta'limining eng muhim maqsadlaridan biri nazariy va amaliy jihatdan bilimli, ijodkor, qobiliyatli yoshlarni tarbiyalab yetishtirishdan iboratdir. Ushbu muammolarni yoritish maqsadida biz o'z bitiruv malakaviy ishimiz mavzusini «Musiqa madaniyati darslarida bolalar musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish» deb nomladik.

I.Karimov I.A. «Yuksak ma'naiyat-yengilmas kuch». T.; Ma'naviyat. 2008. 140-bet.¹

Ishimizning muammosi musiqa madaniyati darslarini tashkil etgan faoliyat turlari orqali bolalarning his-tuyg'u va fikrlarini yanada rivojlantirishning ayrim usul va yo'llarini yoritishga qaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi: O'quvchilarning musiqiy his- tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda darsning barcha faoliyatlarini asosiy vosita sifatida o'rganish.

Tadqiqotning vazifalari: Musiqa madaniyati darslarini tashkil etgan faoliyatlarga umumiy izoh berish.

- Musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda psixologik-fiziologik xarakterlariga mos bo'lgan musiqiy asarlar haqida ma'lumotlar to'plash.
- O'quvchilarning musiqiy tug'usini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqa faoliyatlari tarkibidagi asarlarning kuy-ohang tuzilishi va badiiy - g'oyaviy mazmunini tahlil qilish.
- Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning shakl, usullarini ishlab chiqish va manbalar asosida yoritish.

- Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his - tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishga doir usul va yo'llarni ishlab chiqish, natijalarini o'rganish va tahlil qilish.

Tadqiqotning ob'ekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa ta'limi jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash, asarni badiiy-g'oyaviy jihatdan oddiy tahlil qilish orqali o'quvchilarni musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoni.

Tadqiqot jarayonida shunday ilmiy faraz olg'a surildiki, musiqa madaniyati ta'limi jarayonida bolalar musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishni biz quyidagi faoliyatlar orqali amalga oshirishimiz mumkin, agar:

1. O'quvchilarning musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishni musiqa asarlarini eshitish hamda oddiy tahlil qilish orqali amalga oshirilsa;
2. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishni dars faoliyatlari davomida tinglash hamda kuylash uchun berilgan asarlarning ijro taassurotlari yuzasidan suhbatlar tashkil etish.
3. Tanlangan kuy va qo'shiq matnlarini oddiy tahlil qilish uchun o'quvchilarda yetarli bilim va malakalar shakllantirilsa;
4. Dars jarayonini zamonaviy interfaol usullar asosida tashkil qilinsa;

Tadqiqotning metodologik asosini: mutaffakkirlarimizning musiqa fanini o'qitilishining ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati haqidagi fikrlari;

O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi; «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»dagi Qonunlari; Prezidentimizning 2008 yil 7-yanvardagi «Bolalar musiqa va san'at maktablarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada yaxshilash bo'yicha 2009-2014 yillarga mo'ljallangan Davlat Dasturini tayyorlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi F-2908-sonli farmoyishi. Musiqa madaniyati uzviylashtirilgan o'quv dasturini joriy etish bo'yicha tavsiya va taqvim mavzu rejalar.

Ilmiy ishning nazariy manbasi bo'lib, Markaziy Osiyo allomalari, (Abu Nasr Al-Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Jomiy, Navoiy, Bobur va boshqalar)ning tarbiyaviy ahamiyati haqidagi g'oyalari; musiqa tarbiyasi (Nurmatov H.N., Mamirov Q.K., Ibrohimov P.G'., Omonullayev O., Avralova D.M. va boshqalar).

Qo'yilgan vazifalarni yechish uchun quyidagi **ilmiy metodlardan** foydalanildi: muammoning turli jihatlariga taalluqli adabiyotlarni tahlil qilish umumiy o'rta ta'lim maktablari musiqa madaniyati fani o'qituvchilarining bolalarni musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish borasidagi pedagogik tajribalarni o'rganish va umumlashtirish; pedagogik

eksperiment o'tkazish; muammoga tegishli reja; dastur va o'quv qo'llanmalarini tahlil qilish; o'quv- tarbiyaviy jarayonning barcha bosqichlarida o'quvchilarning musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish borasida izlanishlar olib borayotgan o'qituvchilarning ishlari bilan tanishish va o'quv mashg'ulotlarini kuzatish; savol- javob (anketa)larni o'tkazish; olingan natijalarni oson va sifat jihatidan tahlil qilish.

Tadqiqotni tajriba-sinovlarini o'tkazish Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi 21- umumiy o'rta ta'lim maktabi **tayanch** qilib olindi.

Tajriba-sinovida 1-4 sinflardan 60 dan ortiq o'quvchi va 10 ga yaqin o'qituvchilar qatnashdilar.

Birinchi bosqich (18.11.2011.) tadqiqotning mavzusi, muammoning hozirgi kundagi ahvoli, predmeti, vazifalari, farazi va uni o'tkazishning uslubiyoti aniqlandi, yetarli dalil va asoslar yig'ildi: adabiyotlar, dasturlar, qo'llanmalar musiqa madaniyati o'quv mashg'ulotlariga oid materiallar o'quvchilarning musiqa asarlari haqidagi umumiy taassurotlari tahlil qilindi; o'quvchilarning musiqiy his- tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishga oid asosiy tarkibiy qismlar (komponentlar) tanlab olindi va unga tayyorgarlik darajasini ko'rsatkichlari ishlab chiqildi.

Musiqiy mashg'ulotlar mazmunini tashkil qiluvchi tinglash, kuylash va tahlil qilishga oid asarlarining ro'yxati tuzib chiqildi.

Ikkinchi bosqich (4.02.2012.) o'quvchilarning musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar mohiyati yangi dastur asosida o'rganildi va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqildi. O'quvchilarning musiqiy tug'usini rivojlantirish va takomillashtirishda o'quvchilarga tinglash, kuylash va tahlil qilish uchun berilgan asarlar ular tomonidan qanday o'zlashtirayotganini tekshirib ko'rish uchun kirishildi. Tabiiy tajriba-sinov mo'ljallangan va ishlab chiqilgan ba'zi bir vosita va uslublarini tez sur'atda o'quv-tarbiyaviy jarayonga foydalanish imkonini berdi. Shu bilan bir qatorda, bir vaqtning o'zida uni boshqarish bilan o'zgartirishlar, qo'shimchalar, aniq fikrlar kiritish mumkin bo'ldi.

Tadqiqotimizning ilmiy farazi tajriba-sinov o'tkazish jarayonida tekshirib o'quvchilarning musiqa madaniyati darslarida musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda ta'lim mazmunini umumdidaktik printsiplar asosida tashkil etishning qulay yo'llari aniqlab berildi.

Uchinchi bosqich (6.04.2012.) tadqiqot natijalari tahlil qilindi, bir tuzumga solindi va umumlantirildi, umumiy xulosalar chiqarildi, ilmiy-amaliy tavsiyanomalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ilmiy yanqiligi va nazariy ahamiyati. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda darsning barcha faoliyatlari asosiy vosita sifatida o'rganildi va umumiy izoh berib chiqildi:

- O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqa faoliyatlari tarkibidagi asarlarning kuyi, ohang tuzilishi va badiiy-g'oyaviy mazmuni tahlil qilindi;

- Musiqiy tuyg'uni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda psixologik-fiziologik xarakterlariga mos bo'lgan musiqiy asarlar haqida ma'lumotlar to'plandi.

- Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning shakl va usullari ishlab chiqildi hamda manbalar asosida yaratildi.

- Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishga doir ishlab chiqilgan usul va yo'llarning natijalari o'rganildi va tahlil qilindi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, undagi nazariy xulosalar ta'lim jarayonida o'quvchilarning his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda o'z ta'sirini o'tkazdi. Muammoga tegishli nota shakllarini, uslubiy ko'rsatmalarni umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida qo'shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tasdiq'i va qo'llanishi. Bitiruv malakaviy ishining mavzusi Pedagogika-psixologiya fakulteti Musiqa kafedrasining 2012 yil-maydagi ____ sonli yig'ilishida tasdiqlandi. Tadqiqot xulosalari va natijalarini umumiy o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida, musiqa o'qitish metodikasi kurslarida qo'shimcha manba sifatida qo'llash mumkin.

Himoyaga bitiruv malakaviy ishining quyidagi holatlari olib chiqiladi:

- Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoni o'z ichiga axborot tinglash, kuylash kabi tarkibiy qismlarni oladi;

- Musiqa his-tuyg'ularini rivojlantirish jarayoni o'quvchilarning ruhiy, nazariy va amaliy jihatlarida namoyon bo'ladi;

- O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish bir qancha pedagogik omillar va shart-sharoitlarga bog'liq;

- Musiqiy fanlar o'rtasida uzviy aloqani o'rnatish; o'quv jarayoni sinfdan tashqari musiqiy faoliyat va mustaqil ta'limni uzviy ravishda tashkil etish; barcha musiqiy faoliyat turlaridan bir vaqtning o'zida unumli fodalanish va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish qismi, ikki bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va ilovalardan iborat.

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi asoslab berilgan, ilmiy ishning ob'ekti, predmeti, maqsadi, farazi, vazifalari hamda himoyaga olib chiqiladigan asosiy holatlari aniqlab berilgan.

Birinchi bobda. «Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik asoslari»da yangi ta'lim mazmuniga

qo'yilgan talablar, shuningdek, musiqa madaniyati darslarini tashkil etish faoliyati turlarining nazariy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

Ikkinchi bobda. «Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning uslubiy vositalari»da dars mazmunini tashkil etgan faoliyat turlari tarkibidagi ayrim musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy jihatlari oddiy tahlil qilib beriladi. Mavzuga oid materiallarni ta'lim jarayonida qo'llashning usul va yo'llari, shakl va metodlari haqida amaliy ko'rsatmalar beriladi.

Xulosa. Tadqiqotning asosiy natijalariga ta'rif berilib, umumiy xulosalar chiqariladi, muammoning bundan keying istiqbollari va yechilishi zarur bo'lgan masalalar yuzasidan fikr yuritiladi.

I.BOB. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his- tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik asoslari.

1.1. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirish va badiiy didini o'stirishda yangi ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar.

Musiqa umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilar shaxsiyatini, umuman inson shaxsiyatini rivojlantiruvchi muhim ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va ahloqiy madaniyatini shakllantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga, fikr doirasini kengaytirishga, musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirishga, mustaqillik va tashabbuskorlikni tarbiyalashga xizmat qiladi. Musiqa madaniyati o'quv predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan barcha o'quv predmetlari, jumladan, adabiyot, tasviriy san'at, jismoniy tarbiya, mehnat va boshqa fanlar bilan bog'liqdir. Barcha o'quv fanlari qatori musiqiy ta'limda ham Davlat ta'lim standartining joriy etilishi milliy musiqiy meroslardan to'laqonli foydalanish imkonini beradi. Bular ommaviy xalq kuy va qo'shiqlarida, xonanda va sozandalarning, ijodiy faoliyatlari, maqom, shashmaqom, dostonlar va bugungi zamonaviy musiqiy faoliyatda o'z aksini topdi. Musiqa san'atining bu kabi imkoniyatlari yangi avlodni tarbiyalashda, ularning barkamol bo'lib yetishlarida o'ziga xos va takrorlanmas manba bo'lib xizmat qiladi. Azaldan Sharq, jumladan, o'zbek musiqa ta'lim-tarbiyasi, pedagogikasi va uning mukammal uslubiyotlari ustoz – shogird an'analari misolida takomillashib borgan.

Musiqa ta'limidan davlat ta'lim standartlari asosida yangi ta'lim mazmuni o'quvchilarning musiqiy bilim va malakalari bilan birga ularda kuzatuvchanlik, xotirani mustahkamlash, obrazli tasavvur qilish, ularda ijodkorlik, mustaqillik, tashabbuskorlik, badiiy va musiqiy did kabi hislatlarni rivojlantirishni ta'minlaydi. Shu bois, musiqa madaniyati ta'limining yangi mazmuni yosh avlodni musiqiy merosimizga vorislik qila oladigan, umumbashariy musiqa boyligini idrok eta oladigan madaniyatli inson darajasida voyaga yetkazishni nazarda tutadi.

Bunda o'quvchilar musiqa san'atini butun nafasati bilan o'rganishlari, ommaviy musiqa faoliyatlari, musiqani badiiy didini idrok etish, yakka va jamoa bo'lib qo'shiq kuylash, raqsga tushish va ijodkorlik malakalarini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Shuningdek, o'quvchilar musiqiy iqtidorini rivojlantirish, musiqa san'atiga mehr va ishtiyoqini oshirish, musiqa san'atiga qiziquvchi o'quvchilarning iqtidorini rivojlantirish uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratib berish, ularning badiiy ehtiyojlarini qondirish musiqa ta'lim-tarbiyasining asosiy vazifasini tashkil etadi. Shu bilan bir qatorda jahon xalqlarining umuminsoniy musiqiy qadriyatlarini ham chuqur o'rganish yosh avlodni xalqaro nufuzga molik bo'lgan madaniy durdonalardan bahramand bo'lishini ta'minlaydi.

Musiqa madaniyati o'quv fanining mazmuniga bo'lgan minimum talablar nazariy va amaliy faoliyatlar majmuasidan tashkil topib, ular quyidagi mavzularni belgilaydi.

Boshlang'ich musiqa savodi, musiqiy asarlar ijodkorlari faoliyati, musiqa ijrochilari, musiqa ijrochiligi, ashula, xor, ansambl, orkestr va simfonik orkestrlar faoliyati, musiqiy sahna asarlari, xalq va professional musiqasi, bastakorlar va kompozitorlar ijodini, o'zbek xalq cholg'u asboblari bilishni, mashhur o'zbek xalq sozanda va xonandalar ijodiy faoliyati, musiqiy atama va iboralar, musiqa janrlari, ustozona mumtoz musiqa, Sharq va jahon xalqlari musiqasi, ularning taniqli namoyondalari, maqom va shashmaqom, uning mashhur ijrochilari faoliyati, o'zbek musiqasida mahalliy va uning mashhur ijrochilari, o'zbek milliy musiqasida zamonaviylik va zamonaviy musiqa, milliy estrada musiqasi va uning ijrochilari kabi mavzular asosida milliy musiqa madaniyatimizni o'zlashtirishni nazarda tutadi.

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi o'quv faoliyatlarida nazariy ham amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo'lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

Musiqa tinglash va kuylash ta'lim mazmunining asosini tashkil etadi. Ularni kuylash, tinglash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan bir qatorda cholg'uchilik, musiqali harakatlar, ijodkorlik faoliyatlari bilan har tomonlama o'rganish va o'zlashtirish, musiqiy tavsiflarni ifodalash imkoniyati yaratiladi. O'zbek xalq musiqasi o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, qardosh va jahon xalqlari kompozitorlari musiqiy asarlaridan namunalar, shashmaqom sho'balari, mahalliy musiqa uslublaridan namunalar tinglanadi.

Jamoa bo'lib kulyash faoliyati o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z

ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlarni ijrosini eshitish, kuzatishni hamda ular bilan bahamjihat jo'navozlik qilishga intiladi.

O'zbek xalq qo'shiqlari, o'zbek bastakorlari va kompozitorlari qo'shiqlari mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlari, jahon va qardosh xalqlari kompozitorlari qo'shiqlari, mahalliy musiqa uslublariga oid folklor qo'shiqlari, maqom aytim yo'llaridan namunalar kuylaydilar.

Musiqa savodi barcha bilimlarni nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsdan qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, ijro etish, musiqiy harakatlar) bo'lmasin, berilgan mavzudagi asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, shakli, tuzilishi, ijrochiligi) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim saviyasini tarkib toptiruvchi umumiy bilim, tushunchalar majmuasini (ijrochiligi, xalq va bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi) tashkil etadi.

Musiqa savodida musiqiy atamalar, an'analar, templar (sur'at), intervallar, alteratsiya belgilari, dinamik belgilar, musiqaning ifoda tili, oddiy musiqa shakllari va musiqa janrlari, major va minor ladlari haqida tushuncha beriladi.

Musiqa tinglash yakkanavoz va jo'rovozlarni ajrata bilish, ansambl va orkestr ijrosini farqlay bilish, sozlar va sozlar tembrini ajrata olish, musiqiy did va idrokni rivojlantirish. O'zbek, qardosh va jahon xalqlari bastakorlari asarlaridan namunalar tinglash kabilarni o'z ichiga oladi.

O'quvchilar ijrochiligini shakllantirishda musiqa ijrochiligi, qo'shiq ijrochiligi, sozlar ijrochiligi, raqs ijrochiligi, yakka va jamoa bo'lib ijro etish, xalq va kasbiy musiqa: bolalar kuy va qo'shiqlari, ommaviy xalq kuy – qo'shiqlari, maqom, dostonlar, zamonaviy musiqa ijodi, xalq sozanda va xonandalari ijodini bilish. Musiqaning ifodaviy tili: kuy, garmoniya, ritm-usul, sur'at, o'lchov, registr, dinamik belgilar bilan tanishish. Major va minor ladlarini farqlay olish. Oddiy musiqa shakllari: bir qismli ikki qismli va uch qismli musiqa shakllari: ko'pletli, ronda, sonata, syuitalar haqida tushunchaga ega bo'lish. Musiqiy janrlar: ashula, raqs, vals, marsh, opera, balet, musiqiy drama, cholg'u musiqasi kontata, kvartet, simfoniya kabi janrlarni farqlay olish. Asosiy musiqiy faoliyat turlari: bastakor, kompozitor, ijrochi, sozandalar ijodi bilan tanishish. Ijrochilar: ansambl, orkestr, xalq va professional sozandalar ijrochiligi haqida tushunchaga ega bo'lish. Xor ijrochiligi: bolalar, ayollar, erkaklar, xalq xorlari va davlat xorlari ijrochiligi bilan tanishish. Partiya ovozlari: soprano, alt, tenor, bas, ovozlarni farqlay olishga erishish muhimdir. Shuningdek, musiqa san'atining boshqa san'at turlari, me'morchilik, rangtasvir, haykaltaroshlik, adabiyot, kino, teatr kabi san'atlar bilan bog'liqligi. Ustozona, mumtoz musiqa: Sharq xalqlari,

qardosh va jahon xalqlari musiqasi, atoqli o'zbek bastakorlari va kompozitorlari, atoqli o'zbek xalq sozanda va xonandalari, mashhur ansambllar, orkestrlar va xor jamoalari, shashmaqom va uning ijrochilari, o'zbek musiqasida mahalliy uslublar, ularning ijrochilari, musiqada zamonaviylik va zamonaviy musiqa, estrada musiqasi va uning ijrochilari haqida tushunchani dars jarayoni hamda darsdan tashqari amaliy mashg'ulotlar orqali amalga oshirish nazarda tutiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar:

Milliy musiqa amaliyotida mahalliy uslublar va ularning mahalliy shevalari, boshqa madaniy-maishiy an'analari bilan bog'liqligi, har bir mahalliy uslubda o'ziga xos ijrochilik uslublari va cholg'u asboblari bilish, Farg'ona-Toshkent, Samarqand-Buxoro, Surxondaryo-Qashqadaryo, Xorazm uslublari xususiyatlari, mashhur musiqa janrlari (doston, katta ashula, yallachilik va b.q.)ni bilish ularning mashhur ijrochilari, ashulachilar, maqom haqida tushuncha, shashmaqom, cholg'u va aytim yo'llari. O'zbekiston sarhadida ustozona musiqaning ko'p tarmoqli va mahalliy an'analarga ega ekanligi ularning o'xshashligi va mosligi, mahalliy musiqiy an'analarning zamonaviy musiqa, bastakorlik va kompozitorlik ijodi sohasida namoyon bo'lishini bilish.

Ikki ovozli qo'shiqlarni sof ohangda kuylash major uch tovushligidan minor uch tovushligiga mustaqil kuylab o'tish, kuylashda forte va piano dinamik belgilarini bajarish, o'zi va o'rtoqlari ijro etgan qo'shiqlarning ijrochilik saviyasi va badiiy sifatini baholay bilish, to'rt lokal mintaqada mavjud musiqiy mahalliy uslublarga ko'ra farqlay bilish, baxshilar ijrolarini cholg'u jo'rlari (do'mbira, dutor, tambur, tor) va ovoz ishlatish (bo'g'iqlik va ochiq) uslublarga ko'ra ajrata bilish, mashhur xalq qo'shiq-kuylari, kasbiy musiqa janrlariga doir ashula, katta ashula, doston ashulalarining ijro usullarini farqlay bilish. Mashhur qo'shiq va ashulalar, yor-yorlar, ushshoqlarning mahalliy uslub variantlarini ajratish o'zbek klassik musiqasida mahalliy uslub variantlarini ajratish, o'zbek klassik musiqasida mahalliy uslublarning mujassamligini anglash, vokal xor mashqlarini kuylashda berilgan intervallarini aniqlash, raqs ijodkorligini bajarishdan iborat.

Ta'lim mazmuniga qo'yilgan bu talablarning barchasi o'quvchilarning bilimini, ijodiy qobiliyatini o'stirishda, ularda musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, musiqa ta'limining barcha faoliyatlari umumiy musiqa ijrochiligi bilan bog'liqdir.

O'quvchi tomonidan ijro etilayotgan cholg'u kuyi, dars davomida o'rganilayotgan qo'shiq ohangi bularning barchasi, o'quvchilarning his-tuyg'ularini rivojlantira borib, ularda mantiqiy fikrlash jarayonini yuzaga keltiradi.

Asarni suhbat orqali musiqiy va badiiy-g'oyaviy jihatdan tahlil qilish, tinglash orqali asar zamiridagi mazmunni tasvirlay olish o'quvchilarning qiziqishini yanada orttira boradi. Umumiy

o'rta ta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda dars faoliyatlarining o'rni muhimdir.

Bu faoliyat turlariga qo'yilgan talab va vazifalar yangi dastur mazmunida to'liq ko'rsatib o'tilgan. Yangi dasturning asosiy faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi, avvalo, darslarning muayyan mavzulari har bir chorak uchun belgilangan bosh mavzulardan kelib chiqadi va saboq chog'ida musiqa muayyan mohiyatini tushunishga yordam beradi, qo'shiq kuylash va musiqa savodi mashg'ulotlari darsning mustaqil qismi emas, balki dars mavzuini ochib beruvchi musiqa faoliyati sifatida qabul etiladi. Uchinchidan, dars mavzuining qiziqarli bo'lishi va ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida raqs va musiqali ritmik harakatlar, chapak va bolalar cholg'u asboblari - shiqildoq, doiracha, qo'shiq va boshqalarda musiqa jo'r bo'lish hamda musiqa ijodkorligi kabi yangi musiqa faoliyatlari qo'llaniladi. Ushbu faoliyatlar zahirida o'yin xususiyatlari mavjudligi tufayli ular o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan barcha musiqa faoliyatlari dars mavzusining ajralmas qismi va mantiqan uzviy bo'lagi sifatida amal qiladi. Bu jihatdan "Musika" predmeti kompleks (integral-aralash) dars tipiga kiradi va unda darsning umumiy mavzuga bo'ysunuvchi, o'zaro mantiqan bog'lanuvchi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi.

O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqiy faoliyat turlarining barchasi birdek xizmat qiladi. Musika mashg'ulotlari davomida quyidagi musiqa faoliyatlariga amal qilinadi. Bular:

Musika idroki (tinglash), kuylash, musiqa savodi, raqs va ritmik harakatlar, chapak va cholg'u asboblari chalish hamda musiqa ijodkorligi. Musika idroki dars mashg'ulotlarida yetakchi faoliyat sifatida muhim rol o'ynaydi. U ikki holatda amalga oshadi. Birinchi holatda ma'lum asar tinglanib, idrok etiladi va uning badiiy tavsiflari dars mavzuga doir oddiy musiqiy-pedagogik tahlil etiladi. Eshitish orqali asarni tushunish va ongli idrok etish, asarning musiqiy xususiyatlari (janri, tuzilishi, ifoda vositalari, ijrochiligi) hamda badiiy ma'lum bilimlarga ega bo'linadi. Ikkinchi holatda musiqa asarlari avval tinglanib (idroki etilib), so'ng u yoki bu faoliyati ko'proq kuylash orqali o'rganiladi, uning badiiy mazmun xususiyatlari amaliy faoliyatda ifodalaniladi. Masalan, o'rganiladigan qo'shiq avval o'qituvchi ijrosida (tasma orqali ham) bir-ikki marta tinglanadi, asar xususiyati haqida suhbat qilinadi, so'ng o'rganishga kirishiladi, raqs musiqasi avval tinglanadi, kuy tavsiflari anglab olingandan so'ng raqs harakatlari ifodasi o'rganiladi. Ko'pincha asar bir necha faoliyat uyg'unligida (tinglash, kuylash, raqs harakati va boshqa) o'rganiladi. Bunday mashg'ulot usuli asarni puxta o'rganish va ayni holda kompleks malakalarining rivojlanishi uchun imkon yaratib o'quvchilarni mashg'ulotlar davomida musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirib boradi. Musika darsida barcha faoliyatlar muayyan mavzu zahirida mantiqan o'zaro bog'lanadi, natijada darsning mantiqan bir butunligi vujudga keladi. Musika

savodi barcha faoliyatlarini nazariy birlashtiruvchi faoliyat sifatida muhimdir. Darsda qaysi faoliyat mashg'uloti (tinglash, kuylash, raqs va boshqa) qo'llanilmasin, uning amaliyotida foydalanilayotgan asar o'rganiladi va uning xususiyatlari (janri, tuzilishi, ijrochiligi va h.k.) haqida yangi tushunchalar hosil bo'ladi. Shu bois, musiqa savodi faqatgina nota savodi uslublaridan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy qismi, musiqiy bilim doirasini tarkib toptiruvchi, umumiy bilim-tushunchalar majmuasini (musiqa shakllari, janrlari, cholg'uchilar ijrochiligi, xalq bastakorlik musiqasi, ularning farqlari, milliy musiqaning mahalliy uslublari, klassik musiqa, nota savodi va boshqa) singdirib borishdan iborat.

Shuni alohida e'tiborga olmoq zarurki, o'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda, musiqa idroki (tinglash) va musiqa savodi faoliyatlarining o'rni alohidadir. Bu ikkala faoliyat bir-biriga uzviy bog'lanish bilan qolgan barcha faoliyatlar amaliyotiga yetakchilik qiladi. Kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqa – o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Sinfda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqaradi, o'rtoqlari ijrolarini eshitib kuzatadi va ular bilan birga jo'r bo'lib kuylashga intiladi.

Zotan, tinglash va kuylash o'quv materiallari ta'lim mazmunini tashkil etadi. Ularni tinglash va kuylash faoliyatlari vositasida o'rganish bilan birga, cholg'uchilik, musiqali harakatlar hamda ijodkorlik faoliyatlari bilan ham har tomonlama o'zlashtirish va musiqiy tavsiflarni ushbu faoliyatlar vositasida ifodalash imkoniyatlari yaratiladi.

Shuningdek, mashg'ulotlar jarayonida o'quvchilarning musiqiy qobiliyati, xususan, ritm-usul tuyg'usi va asar badiiyatini ifodalash malakalarini rivojlantirish bilan birga, ularning jismoniy rivojlanishlari uchun raqs va ritmik harakatlarni bajarish ijobiy samara beradi. Bu ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun nihoyatda zarur. Darsda o'rganiladigan raqs va harakatlar boshqa dars chog'ida (jismoniy madaniyat darsida, tanaffuslarda) keng qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir.

Shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqi milliy raqs san'ati bilan olamga dong taratgan. Ammo maktab ta'lim-tarbiyasi tarkibida raqs sabog'i deyarli yo'q darjadaligini nazarda tutsak, musiqa darslari mazmunida milliy raqs usullarini bolalarga yoshlikdan o'rgatish zarurligi ma'lum bo'ladi.

Shu bois, musiqa o'qituvchisi milliy raqs san'atimizning oddiy harakatlarini bilishi va darsda qo'llash usullarini puxta egallashi davr talabidir. Chapak va cholg'u asboblari chalg'ish faoliyati ham raqs va musiqali harakatlar singari o'quvchilarning musiqa hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun foydalidir. Bu faoliyat boshlang'ich sinflarda milliy cholg'u asboblari bilan tanishish va ularning tovush tembrlarini anglab olishi bilan uzviy bog'lanib amalga oshirilishi zarur. Bunda doirachalar, qayroq, qo'shiq, kichik sopollar kabi urib

chalinadigan cholg'u asoblaridan foydalanib o'qituvchi ijrosi va magnitafon tasmasi orqali taraladigan kuylarga ritmik jo'r bo'lish malakalari rivojlantiriladi.

Musiqqa ijodkorligi faoliyati dasturga ilk bor kiritilmoqda. Bu faoliyat bolalarda musiqiy tafakkur, izlanish va ijodkorlik malakasini o'stira borish uchun katta ahamiyatga ega. Bu faoliyat o'qituvchi ijrosiga doira chertib jo'rovozlik qilish, sinf ijrosiga "dirijyorlik" qilish, kuy ohangiga mos harakatlar (xususan, raqs) topish, sher parchasiga kuy "bastalash" kabi ijodkorlik amaliyotlari bilan bajariladi. Bu faoliyat sinfdagi iqtidorli o'quvchilarga e'tiborni kuchaytirish, ularning badiiy ehtiyojini qondirish uchun, ayniqsa muhimdir. Musiqali harakatlar cholg'uchilik va ijodkorlik faoliyatlarini amalga oshirishda o'yin metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Zotan, ushbu faoliyatlar ko'proq o'yin xususiyatlari bilan bog'liq.

Shunday qilib, musiq faoliyatlari mantiqan birlashib, mazmunan bir butunlikni tashkil qiladi va o'quvchilarda musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas, ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqanimiz asosida o'quvchilarning musiqiy tuyg'ysini rivojlantirishda o'quv faoliyatlarining ahamiyati haqida keyingi faslda to'xtalamiz.

1.2. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda ta'lim jarayonining mazmuni.

Musiqqa darslarida o'quvchilarga musiqadagi yuksak badiiylilikni tushuntirish, musiqqa asarlarining mazmun va mohiyati bilan tanishtirish, musiqiy didini tarbiyalash hamda musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirishda asosiy omil sifatida xizmat qiladi. O'quvchilarda dastlabki his-tuyg'u va fikrlarni rivojlantirish va shakllantirishda albatta ta'limning dastlabki bosqichlaridan boshlab, o'quvchilarning yosh va psixologik-fiziologik xususiyatlariga e'tiborni qaratmoq muhimdir. Shu sababli ishimizning ushbu faslida 1-7 sinflarda ta'lim jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan o'quv jarayonini yoritishga harakat qildik. Birinchi sinfda musiqqa darslari ta'limotining poydevori qo'yiladi. Shuning uchun, avvalo 1-sinfdan boshlab ularni darsga faol qiziqtirish, musiqani idrok eta bilish, musiqiy qobiliyatlarini rivojlantirish musiqqa savodini o'rgata borish asosiy vazifa hisoblanadi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun o'qituvchi bolalarni sevishi, darsga yaxshi tayyorgarlik ko'rishi, barcha metod va printsiplardan to'g'ri foydalana olishi, so'z mahoratiga usta bo'lishi, bolalarga xos bo'lgan qo'shiqlarni chiroyli, mayin, bolalar ovoziga moslab kuylar mazmunini ochib berishi zarur. 1-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik xarakterga ko'ra ma'lum darajada xotirasi to'liq rivojlanmagan, diqqat-e'tibori, ovoz apparati to'la shakllanmaganligi sababli, ovoz pardalari nozik, kuchsiz bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar san'at bilan bolalar bog'chasidam televedenie, radio, qo'g'irchoq teatri va multfilmlar orqali tanish bo'ladilar. Shu bilan birga ular serharakat, o'yinga moyil, taqlidchan bo'ladilar. Repertuarga kiritilgan musiqaviy asarlar ana shu xususiyatlarini nazarga olgan holda, mazmuni va mavzusi jihatdan, xilma-xil bo'lmog'i kerak. Ushbu asarlar ularni his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga kundalik turmushni va tabiatni aks ettirishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarning hayotiy tajribalariga asoslangan holda har bir musiqqa zamirida ma'lum his-tuyg'u va fikrlar aks ettirilishi haqida tushuntirishi kerak, birinchi darslardan oq musiqqa asarlarini o'z-o'zidan paydo bo'lmasligi, uni kimdir katta ijodiy mehnat qilib, yaratishi haqida suhbat o'tkazadi. Buning uchun "Musiqani kim yaratadi?", "Kim ijro etadi?", "Kim tinglaydi?"- degan savolni o'rta tashlaydi. O'rganiladigan asarning xarakterini obrazli qilib ifodalansa, bolalar uni tushunib, mazmunini aniq qilib ochib beradilar. Ma'lumki, 1-sinf o'quvchilari musiqqa haqida har xil darajada umumiy tushunchaga, bilimga ega bo'ladilar. Ammo, ularning kundalik musiqaviy hayotdan olayotgan taassurotlari va musiqaviy tajribalari

bir-biriga yaqin turadi. O'qituvchi sinf jamoasini birlashtirishda aynan shundan foydalanmog'i lozim.

Dars mazmunini hayot bilan bog'lashda bolalarning taassurotlari va tajribalarining boyitib borilishi asosida, musiqaning eng oddiy qonuniyatlari haqida bilim darajalari kengaytirilib boriladi. 1-sinf o'quvchilari musiqa haqida quyidagi bilimlarga ega bo'lishlari kerak:

1) Bolalarning diqqat-e'tibori musiqaning ifoda vositalari kuy, registr, temp, janr va ladlarga jalb etiladi.

2) Ashula aytish qoidalariga doir bilimlar chapak va cholg'u asboblari chalish qoidalar; musiqaga mos harakatlar, qo'shiqlar janri xarakteri va tuzilishiga doir bilimlar haqida ma'lumotga ega bo'lishlari lozim.

3) Musiqa idroki kompozitor ijrochi, tinglovchi haqida qisqacha tanishishlari kerak. Keyingi sinflarda mazkur bilimlar nisbiy tushunchadan aniq tushunchaga aylanadi.

Shunday qilib, 1-sinfda bolalar musiqasining xarakteri va obrazlari haqida, uning oddiy qonuniyatlari haqida umumlashma bilim va nisbiy tushunchalarga ega bo'ladilar, bu shartli ravishda notagacha bo'lgan davr ataladi. Musiqa elementlari asosan qo'l bilan kuy harakati, tovushlar baland-pastligi, uzun-qisqaligi; qo'shiq haqida o'qituvchining kirish so'zi (mualliflari, ayrim tarixiy xususiyatlar, hayotiy ahamiyatlar va boshqalarni hikoya, suhbat yo'li bilan qisqacha bayon etish); qo'shiqni ijro etish yoki gramm yozuvida eshittirish; suhbat yo'li bilan qo'shiqning musiqa xarakteri, uning ifoda vositalari va mazmunini aniqlash hamda ayrim ijro uslublarini belgilash; qo'shiqni musiqali jummalarga bo'lib o'rgatish, ijrochilik sifatleri ustida ishlash; qo'shiqni ijro etish va qo'shiq haqidagi bolalar taassurotlari yuzasidan qisqacha suhbat o'tkazish, ya'ni ummlashtirish.

1-sinfda yil mavzusi: "Biz musiqani sevamiz" chorak mavzulari esa:

I-chorak: "Biz yoqtirgan kuy va qo'shiqlar".

II-chorak: "Musiqali ritmik o'yinlar va qo'shiqlar".

III-chorak: "Musiqa olamiga sayohat".

IV-chorak: "Xushnavo cholg'ularimiz".

Bu mavzular dars jarayonida quyidagi oq'uv faoliyatlarida nazariy va amaliy mashg'ulotlar vositasida bajariladi.

1. Musiqa tinglash.
2. Jamoa bo'lib kuylash.
3. Musiqa savodi.
4. Musiqa ijodkorligi.

Musiqada darsi dastur asosida rejalashtirilib, ko'rgazmali qurollar bilan musiqa o'qitishning og'zaki, amaliy, taqqoslash metodlaridan foydalangan holda, darsda o'quvchilarni jalb qilib, raqs elementlari, musiqali o'yinlar o'ynab, musiqaga mos qadam tashlash, chapak chalishni mayin ifodali qilib kuylash bilan metodik talablar asosida olib boriladi.

2-sinfda musiqa o'qitishning mazmuni va metodikasi. 2-sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakterlariga ko'ra, 1-sinf o'quvchilariga o'xshash bo'ladi. Ularning diqqat-e'tiborini turg'unligi ham yaxshi shakllanmagan bo'ladi. Chunki, ular o'yin bilan bog'liq bo'lgan narsalarga ko'proq qiziqadilar. Ovoz apparatlarining nozik, mo'rtligi, to'la shakllanmaganligi sababli ovozlari falset tipida yangraydi. Ovoz hajmi (do_1 - do_2)cha bo'ladi. Vokal-xor kulminatsiya ishiga e'tibor kuchayadi. Musiqa ritmi, nutqi, kuy, temp, dinamika, o'lchov haqidagi ma'lumotlar, ko'nikma va malakalar konkret nazariy bilimga aylanadi. Musiqa darsini mustahkam o'zlashtirishda 1-sinfda olingan bilimlarga tayanish zarur. Shuning uchun musiqa madaniyati darsini o'qitishda uzviylik – sistemalilik printsipligiga amal qilish zarur.

Musiqa tinglash musiqa faoliyatining yetakchisi hisoblanadi. Zero, darsda qo'llanadigan barcha musiqa materiallari asosan eshitib o'zlashtirish orqali amalga oshiriladi.

2-sinf tematikasida darsning badiiy kompozitsiyasi vujudga keladi. Darsning kulminatsion nuqtasi bolalarda faol qiziqish uyg'otadi. Badiiy emotsional kechinmalarni paydo qiladi. Shu orqali darsning emotsional drammaturgiyasiga erishish mumkin.

O'qituvchi darsni ishonchli dalillar yordamida o'tishi kerak. Dars rejasini tuzganda, ijodiy yondoshmog'i, yaxshi tayyorgarlik ko'rib puxta ishlab chiqarish zarur. Bolalar musiqani chuqur idrok etishi uchun quyidagi faoliyat turlaridan foydalaniladi.

- 1) Xor bo'lib qo'shiq kuylash;
- 2) Chapak va urma cholg'u asboblarida musiqaga ritmik jo'r bo'lish;
- 3) Musiqa xarakteri va obrazlarini harakatlarda ifodalash.

O'quvchilarni muttasil qo'l harakatlariga o'rgatib borish zarur: "diqqat", "auf", "ijroni boshlash", "ijroni tugatish" kabi zarur dirijyorlik choralarga amal qilib kuylash kerak. Kuylash vaqtida o'zini tuta bilishni eslatib o'tish kerak.

2-sinfda bolalar malakalarining oshib borishi fiziologik o'sish munosabati bilan ovoz kuchi, diapazoni, tembri o'zgarib borishi ma'lum tizim asosida olib borishni talab etadi. Musiqa savodida quyidagi bilim va malakalar shakllanib borib, amalda bajarilishi zarur:

- a) kuylarni ritmik sxemalarini bo'g'inli so'zlar bilan kuylash. (Iya, du, da, mo, mi.....).
- b) kuchli va kuchsiz hissalarini aniqlash va ularni his etib kuylash.
- c) chapak va cholg'u asboblarida chalib kuyga ritmik jo'r bo'lish.
- d) marsh va raqs xarakterini harakatlarda ifodalash.
- e) lad haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

2-sinfda lad hissi tarbiyasi ancha ravshanlashadi. Asar xarakterini belgilash bilan birga marsh-qo'shiq va kuylarning major va minor uchtovushliklarini aniq bilib olish bilan belgilanadi.

2-sinf o'quvchilarini ovozigacha ham diqqat bilan e'tibor berish zarur. Baqirib, kuchanib qo'shiq aytishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Ovozlarida kamchilik sezilsa darhol shifokorga murojaat qilishlarini aytish lozim.

Shunday qilib, 2-sinf o'quvchilari musiqani tuzilishi va nota savodiga doir mazkur boshlang'ich bilim va ko'nikmalarga ega bo'ladilar, xor bo'lib kuylashda o'zini tutish, qo'shiq mazmuniga mos emotsional kechinmalarni his etish, tinglagan asarlari yuzasidan suhbatlarda qatnashish, hikoya tuzish, musiqa ohangiga mos harakatlar bajarish, musiqa ritmiga cholg'u asboblari jo'r bo'lish kabi ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar. Shunday qilib:

2-sinfda yil mavzusi: "Musiqani nimani ifodalaydi va ijrochilik turlari, musiqaning ifoda vositalari".

I-chorak: "Yakkanaovozlik, jo'mavozlik va jo'rsozlik".

II-chorak: "Yakkanaovozlik va yakkaxonlik. Cholg'uchilar va xonandalar dastalari".

III-chorak: "Ansamlar va uning turlari. Kuy nima? Kuyda nima ifodalanadi?".

IV-chorak: "Musiqaning ifoda vositalari".

O'qituvchi dars rejasini ushbu mavzular asosida tuzib, ularni bir-biri bilan uzviy bog'lab olib borishi zarur.

3-sinf o'quvchilari o'zlarining psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra 1-2 sinflardan ancha farq qiladi. Ularning diqqat-e'tibori turg'un, xotirasi kuchli, ovoz apparatlari shakllangan, nutqi ravon, vokal-xor malakalariga ega, musiqa haqida bilimga ega bo'ladilar. Shunga qaramasdan, darsning har bir elementini tajribalarga asoslanib, tushuntirish lozim. 3-sinf dars rejasini tuzganda, ayniqsa, ijodiy yondoshishning uning strukturasi mantiqan bog'lab turish, asarlar tartibini sinf imkoniyatiga muvofiq belgilash, bolalarda aktiv qiziqish uyg'otib, badiiy emotsional kechinmalarni vujudga keltirish, ularni ovozigacha moslab tuzish kerak. O'quvchilar o'quv jarayonida musiqaning hayotiyligini soddadan murakkabga qarab uzluksiz rivojlanishini musiqaning nazariyasi va janrlarini tuzilish va mohiyati, boshqa san'at turlari bilan aloqasini o'rganib boradilar. Musiqani savodidan notaga qarab kuylash qobiliyatlari ongli ravishda rivojlanadi. O'qituvchining qo'l harakatiga qarab va ularni qo'llarini harakatga keltirib turli mashqlar va qo'shiqlarini kuylay oladigan bo'lishadi. Bu o'rganilayotgan musiqiy asarlarni janrini aniqlashda, sof intonatsiyada to'g'ri kuylashga va qo'shiq mazmunini ifodali qilib badiiy jihatdan to'g'ri ijro etishda muhim rol o'ynaydi. 3-sinf o'quvchilari nafasini to'g'ri olib jumlani oxirigacha yetkazishga asta-sekin o'rganib borishlari kerak. Ikki ovozli asarlarni eng oddiyini kuylay oladigan bo'lishlari kerak. Ikki ovozli kuylashga erishish uchun avvalo sof intonatsiyaga erishish kerak, bu ovoz sozlash jarayonida erishiladi. Oldin tertsiya kengligida, ikki ovozli

mashqlarni kuylash, so'ngra bir-ikki takt kanon shaklida mashqlar kuylash orqali o'quvchilarning musiqiy o'quvi rivojlanib, eshitish qobiliyati o'sib boradi. Asta-sekin ikki ovozli asarlarni kuylash o'quvchilarni qiziqishini oshirib boradi. O'quvchilarni musiqa haqidagi bilim doirasini kengaytirishda va musiqa qobiliyatlarini rivojlantirishda musiqa tinglash muhim rol o'ynaydi.

O'qituvchi ijrosidan tashqari, grammplastinka yozuvidan, magnet tasmlardagi yozuvlardan foydalanib, bolalar xori, professional san'atkorlar cholg'u asboblariida ijro etgan musiqiy asarlar, xalq qo'shiq va kuylarini tinglab idrok etish bilan o'quvchilarni sehrli musiqa olamiga olib kirish badiiy didni, qiziqishini rivojlantirishi mumkin.

3-sinfda yil mavzusi: "Musiqaning ifoda vositalari". (Musiqa nutqi).

I-chorak: "Musiqaning ifoda vositalari".

II-chorak: "Xor va orkestr".

III-chorak: "Musiqaning tuzilishi".

IV-chorak: "Oddiy musiqa shakllari. Band va naqarot".

Shuningdek, musiqa darslari yil, chorak, mavzulari asosida rejalashtirilib, 5 faoliyat asosida o'tiladi.

4-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik xarakteriga ko'ra hayotir tajribaga boy, fanlarga qiziqishadi. Diqqat-e'tibori turg'unlashgan bo'ladi. Jiddiy bo'lgan masalalar ustida fikrlash, hajm jihatdan kattaroq bo'lgan musiqani ham eshitishga qodirdirlar, izlanish va mustaqil mushohada etish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Bu xususiyatlarni barchasini o'qituvchi nihoyatda, o'ylab, oqilona ish tutishi lozim. Har bir darsdan unumli foydalanishi kerak. Bundan maqsad, bolalarni tezroq dasturdagi musiqa asarlariga, dars uslubiga, musiqa san'atiga, ashula aytishga qiziqtirishdan iborat. 4-sinf o'quvchilarining vokal-xor malakalari bir xilda rivojlangan bo'lmaydi. Chunki, boshlang'ich sinflarda mutaxassislar yetishmaydi. Mutaxassis ish olib brogan joyda esa o'quvchilar sof unisonda kuylash ansambl va qo'shiqlarni me'yoriga yetkazib, ikki ovozda kuylash darajasiga ega bo'ladilar. 4-sinfda ham o'quvchilarni differensial guruhga bo'lib o'tkazish lozim bo'ladi. Chunki, ularning bu davrda ovozlari jarangdor, yoqimtoy, kulminatsion rivojlangan vaqti hisoblanadi. Shuning uchun darsda ko'proq kuylatish maqsadga muvofiqdir. Kalendar-tematik reja tuzganda yuqorida aytilgan xususiyatlarni hisobga olgan holda chorak, yil mavzulari rejasi tuziladi.

O'qitish davomida quyidagilarga e'tibor qaratmoq kerak:

1-dan: fanlararo aloqa metodi; boshqa fanlardan olingan bilim va malakalardan foydalanish; masalan: ona tili va adabiyot, tasviriy san'at, O'zbekiston tarixi, tabiatshunoslik, matematika va boshqalar.

2-dan: o'quvchilarni musiqiy qobiliyatini o'stirish; sof unisonga erishish, jumla boshida nafas olib jumla oxirigacha rejalab yetkazish, lad haqida ma'lumot, o'lchovlarni bilish, notalarga qarab kuylay olish.

3-dan: musiqa savodiga qiziqтира olish; musiqa savodining eng muhim ahamiyati-qo'shiqni notalar nomlari bilan kuylash, tinglash uchun berilgan asarlarni tahlil qila olishdir.

4-dan: vokal-xor malakalari: 11 yoshdagi bolalarda ovoz pardalari to'la shakllangan bo'ladi. Nafas ancha chuqurlashgan bo'lib, ko'krak qismi kengayganligi sababli, tovush ancha kuchaygan bo'ladi. Ovozlarini maromiga tushirib kuylash uchun qo'shiq parchalaridan mashqlar tanlab kuylash lozim. Mashqlarni ma'lum tizimga solib kuylash kerak. Mashq va qo'shiqlar doimo sekin tempdan boshlab o'rgatiladi. Qo'shiq o'rgatishda dirijyorlik uslubida fortepiano cholg'u asbobidan unumli foydalanish lozim. Qo'shiq o'rgatish davomida sof unisonga, ikki ovozlikka, badiiy ijroga, erishish lozim. Musiqa tinglashda vokal va cholg'u musiqasi, xalq ommaviy musiqasi va kasbiy musiqani tinglab idrok eta olish nazarda tutiladi. 4-sinf o'quvchilarining ovoz apparatlari shakllangan, yo'lga qo'yilgan bo'lganligi sababli, ularni ko'proq to'garak ishlariga jalb qilish, (xor, raqs, rubobchilar, doirachilar, vokal ansambli) maqsadga muvofiqdir.

4-sinfda yil mavzusi: "O'zbek xalq musiqa ijodi".

I-chorak: "Xalq aytimlari va cholg'ulari".

II-chorak: "Bayram va marosim qo'shiqlari".

III-chorak: "Mavsum qo'shiqlari".

IV-chorak: "Bahor fasli qo'shiqlari".

5-sinfda o'rta ta'lim etapi boshlanadi. 5-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik jihatdan ancha o'zgargan bo'ladilar. Vokal – xor ko'nikma va malakalariga ega bo'ladi. Sof unisonda kuylashga, ansambl kuylashga ega bo'ladi. Qo'shiq va tinglagan asarlari haqida mustaqil fikr yuritish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ovoz diapazoni (do₁-do₂) ma'lum miqdorda rivojlangan bo'ladi. Fanlarga qiziquvchan va o'zlarining sevgan mashg'ulotlariga astoydil mehr bilan qaraydilar. Bolalarda diqqat-e'tibor ancha turg'unlashgan bo'ladi. Hajm jihatdan kattaroq musiqani kuylashga qodir bo'ladi. Musiqa darsida ko'rgazmalilik asosiy o'rinni egallaydi. O'qituvchi o'zi qo'shiqni ifodali qilib kuylab berishi va o'quvchilarni musiqiy o'quv qobiliyatlarini o'stirishi kerak.

1. sof unisonga erishishi.

2. musiqiy jumlaning boshidan oxirigacha to'la idrok etish.

3. notaga qarab kuylash qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Musiqa savodidan asar tahlili, notalarni joylanishi, o'lchoqlar, ansambl, xor, orkestr haqidagi bilimlarga ega bo'lishi maqsadga muvofiq. Musiqa darslarida, iloji boricha, o'qituvchi

ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan ko'proq foydalanishi kerak. O'quvchilar musiqa fanini boshqa fanlar bilan bog'liq ekanligini ongli ravishda anglashi kerak. 5-sinf o'quvchilarini qiziqishi, qobiliyatiga qarab to'garaklarga jalb etish lozim. 5-sinfda bir ovozda qo'shiq kuylash ustida olib borish davridanoq, o'quvchilarni ikki ovozda kuylashga asta-sekin o'rgatib borishi lozim. O'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab nihoyatda oddiy mashqlardan, qo'shiq naqarotlaridan, kuylash uchun qulay bo'lgan ladlardan boshlashi maqsadga muvofiqdir. Eng oddiy va murakkab mashqlarni ham, asosan solfedjio qilish yo'li bilan o'rganish va kuylash lozim, chunki, bu jarayonda notalarning nomlari va balandligi holatini ham anglab boriladi. 2 ovozlikda kuylashni boshlashdan oldin, sinf taxtasida yoki plakatlarda ko'rsatib notalar nomini va tovushning balandlik holatini aniqlab, ovoz chiqarib, bir necha marta takrorlab so'ng, kuylash zarur. Dastlab katta tertsiya, sof kvarta, sof kvinta, katta seksta singari ohangdosh intervallar, mashqlar uchun asos bo'la oladi.

Chunki, bu intervallar kuylash uchun qulay, yoqimli va o'quvchilar xotirasida saqlanishi oson. Intervallar faqat kki ovozda kuylanmasdan, balki, tinglash uchun ijro etib, ularda yuqori va pastki tovushni aniqlashni topshirish lozim. Bunday savollar o'quvchilarning garmonik o'quvini kuchaytiradi, intervallarni ongli ravishda o'zlashtirish tuyg'usi paydo bo'ladi. Ikki ovozlik qo'shiqlarni kuylash uchun, kichik kanonlardan boshlab, kattaroq hajmdagi jo'rsiz (akapella) asarlariga o'tish, o'quvchilarni bir-birini diqqat bilan eshitib, kuylash qobiliyatlarini o'stiradi. Ikki ovozlik qo'shiqlarni tanlaganda, ikki ovozli elementi bor, kichik hajmdagi asarlar maqsadga muvofiq bo'ladi. Har qaysi ovozning ohangi aniq ravshan, mustaqil bo'lishi kerak. Pastki ovoz kuyi shirali, xushohang, yaxshi esda qoladigan bo'lishi, ayniqsa, muhimdir. Ovoz partiyalarining diapazoni, seksta, septima, oktavalor hajmidan oshmaydigan qo'shiqlar aytishga ayniqsa qulaydir.

Qo'shiqlar o'rtacha tempda yozilgan bo'lishi kuylash uchun foydali va osondir. Ikki ovozli qo'shiqlarni ohanglari imitatsiya jihatidan shakli yengil va oson bo'lishi kerak. O'zbek xalq qo'shiqlarini o'qituvchi ikki ovozlik qilib, qayta ishlab o'rgatish o'quvchilarni talaffuzi, intonatsiyasi va xotirasini rivojlantiradi. Ikki ovozlikni kuylashda, bir ovoz cho'zib, ikkinchi ovoz harakatlanishi ham, bolalarni eshitish qobiliyatlarini o'stiradi. Keyinchalik esa, ovozlarni parallel bir tomonga yo'nalishi, va har xil muarakkabroq holatida ham kuylash mumkin bo'ladi. Musiqa darsida ikki ovozda kuylash uchun bolalar ovozini diskant va altga bo'lish shart emas, balki taxminiy bo'lishi ham mumkin. Chunki, ikki-uch ovozni kuylaganda bolalarni musiqa o'quvi ko'proq o'sadi. Shuning uchun ovozlarni galma-gal almashtirib kuylatish lozim. Buning uchun albatta dastlab, sof unisonga erishiladi. So'ngra ikki ovozli asarlarga o'tiladi. 5-sinf bolalarning ovozlari yangroq ovoz apparatlari shakllangan, ko'nikma va malakaga ega bo'lganligi sababli ikki ovozli qo'shiqlarni o'rgatish maqsadga muvofiq.

5-sinfda musiqa darslarini yil mavzusi: “Kompozitorlik musiqa janri”.

I-chorak: “O‘zbek xalq cholg‘ulari orkestri”.

II-chorak: “Simfonik orkestr. Musiqada vokal-simfonik janrlari”.

III-chorak: “Sahnaviy musiqa asarlari, balet va raqs san’ati. Musiqali drama va komediya, bolalar uchun musiqali ertak-tomoshalar”.

IV-chorak: “Opera san’ati va o‘zbek musiqasida opera janri”.

5-sinfda darsning asosiy maqsadi, o‘quvchilarni boshlang‘ich sinflarda olgan bilimlarini va tayyorgarlik darajasini aniqlab, musiqa mashg‘ulotlariga, to‘garak ishlariga qiziqtirishdan iborat. Mazkur maqsad yuzasidan kirish suhbatini o‘tkaziladi va ko‘pchilik yoddan biladigan qo‘shiq kuylanadi. Kuylashdan oldin qo‘shiq kuylash holatini, o‘tirish qoidasi tanishtiriladi va tartibga solinib, vokal mashqida ovozlari sozlanadi, so‘ngra qo‘shiq ijro etiladi hamda ijro yutuq va kamchiliklari baholanadi. Qo‘shiq mazmuni suhbatda aniqlanib, asar xaraketri va tempi, shakli belgilanadi hamda talablarga ko‘ra qayta kuylanadi, toki o‘quvchilarda darsning professional darajasi sezilsin. Bunda ayniqsa, ovoz erkinligi va ravonligi, soz va anasmbлга e‘tibor kuchayadi. Qo‘shiq ijrosi xarakter jihatdan taqqoslanadi va badiiy mazmun jihatdan tahlil etiladi. Natijada, o‘quvchilarni qo‘shiq kuylashga, musiqa tinglashga, asarlarni savodli tahlil qilishga, to‘garaklarga qatnashishga, chiroyli ovoz hosil qilib kuylash mas‘uliyati oshadi. Keyinchalik esa ikki ovozli qo‘shiq kuylashga qiziqishi ortib boradi. Ikki ovozli kuylash malakasi singdiriladi. Bu to‘garak ishlarida o‘z natijasini ko‘rsatadi. Musiqiy asarlarni tinglash va kuylash uchun albatta musiqiy bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lish kerakligi va hayotda musiqa tarbiyasining ahamiyati haqida bayon etiladi.

6-sinfda musiqa darslarining maqsad va vazifalari, o‘quvchilarning psixologik-fiziologik xususiyatlari va musiqiy o‘quvi, oldingi sinflarda olgan bilim va malakalarini darajasiga asoslanib belgilanadi. Bu sinfda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan maqsadlar, musiqa tarbiyasining bosh mezonini o‘quvchilarning ma‘naviy boyligining tarkibiy qismi bo‘lgan musiqaviy madaniyatni shakllantirishga qaratiladi. Mazkur maqsadlarni quyidagicha amalga oshirish belgilanadi:

1. Darsning barcha faoliyatlari vositasida doimiy ravishda o‘quvchilarning musiqaviy iqtidorini rivojlantirib borish.

2. Vokal-xor malakalarini rivojlantirib, yakka holda jamoa bo‘lib kuylash, ikki ovozli kuylashga o‘rgatish.

3. Musiqa idrokini rivojlantirish va asarlarni tuzilishi, shakli, ladi, mualliflari, tempi haqida fikr yuritishga o‘rgatish va estetik zavqlanish vositasida xotirasi, nutqi, dunyoqarashini o‘stirish.

4. Musiqa savodidan oddiy musiqa terminlarini va atamaları mohiyatini musiqa amaliyotida bilish va har bir musiqa asarida kuylab borish. Ovoz hajmiga (do_1-re_2) qarab ikki ovozlik qilib o'rgatiladi. 6-sinf o'quvchilarida o'spirinlik davri boshlanadi. Buning natijasida organizmda aktiv o'zgarishlar ro'y beradi. Fiziologik-psixologik jihatdan o'quvchilarni ovozini o'zgarishi, bo'yni o'sishi, fanlarga qiziqishi, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatlari rivojlana boshlaydi. Natijada, bosh miya yetarli darjada ozuqa ololmay, horg'inlik holatlari ro'y beradi. Ya'ni dars davomida o'quvchilarni diqqat-e'tibori tarqaladi. Ularni jalb etish qiyinlashadi. Bu davrda ularga jiddiy, meribonona munosabatda bo'lish, do'stona suhbatlashishni talab etiladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchini yaxshi o'rganishi lozim. Chunki, o'quvchilar kattalarni munosabatiga jiddiy e'tibor beradilar, ular ko'proq kattalar bilan muomalada bo'lishlarini istaydilar. Bolalarning intizomida ayrim o'zgarishlar paydo bo'ladi, bolaning istagi va qobiliyati o'rtasida tafovutlar sodir bo'lib turadi. Bularning hammasini o'qituvchidan yuqori malaka va tarbiyachilikni talab etadi. Bunday holatda o'qituvchi o'quvchilarni quyi sinflarda olgan bilim va malakalarga va hayotiy dalillarga suyanib ish tutishi yaxshi natija beradi. Buning uchun dars mazmunini hayot bilan bog'lab olib borish zarur. Qo'shiq o'rgatish va musiqa tinglash jarayonida asarlardan parchalar kuylab ovozlarini sozlashi, bolalarda qiziqish uyg'otadi. Bunda ijro uslublarini batafsil tushuntirish lozim. Asarlarni tahlil qilishda bolalarni aktiv qatnashtirish maqsadga muvofiq. Har bir xalqning o'z milliy musiqa san'ati mavjudligi, musiqa har bir tarixiy davrning badiiy aksi ekanligi haqida bolalarga aniq tushuncha hosil qilish lozim. Shu asosda o'zbek musiqasining cholg'u asboblari va o'zbek xalq musiqa janrlari, maqomlari, mumtoz qo'shiqlari zamonaviy qo'shiqlarini taqqoslab ko'rsatish mumkin. Masalan: "Shashmaqom"-tojik va o'zbek xalqlarining azaliy birodarlik ramzi ekanligi, ularning ko'p cholg'u asboblari bir xilda ekanligi va boshqa xalqlar foydalanishi mumkinligi haqida xalq musiqasi asosida yaratilgan kompozitorlik asarlari va zamonaviy musiqa bilan tanishtirib taqqoslash lozim.

Musiqa savodidan o'lchovlar, ladlar, ton va yarim ton, alteratsiya va dinamik belgilar, intervallar, reprizalar bilan tanishtirib, musiqiy asarlarni tahlil qilish yaxshi natija beradi. 6-sinfda o'quvchilarni ovoz diapazoni I-ovozlar (do_1-mi_2), II-ovozlar ($si_{kich}-re_2$) bu davrda o'quvchilarga qo'shiqni ikki ovozlik qilib o'rgatish maqsadga muvofiq. Chunki bu vaqtda mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davrida oldin o'g'il va qiz bolalar ovozi o'rtasidagi farq uncha sezilmaydi. Mutatsiya davrida qo'shiq o'rgatish o'qituvchidan katta mas'uliyatni talab etadi. Qo'shiqlarni bolalarning ovoz imkoniyatlariga mos tushishi va dars davomida ularning ovozlari asrab-avaylash ishlariga ahamiyat berish zarur. Darsning asosiy qismini qo'shiq kuylashga sarf etib, ovozlarni charchatmaslik lozim. O'quvchilarni ikki ovozga ajratib qo'shiqlarni ikki ovozlik qilib, ularning ovozlari moslash, ovoz tarbiyasining muhim

vositasidir. Xor bo'lib kuylash, musiqa savodi, musiqa tinglash faoliyatlari, asarlarni tahlil qilishda mavzular asosida mantiqan bog'lanadi.

Yangi dastur asosida yil mavzusi: "Mumtoz musiqa".

I-chorak: "Mumtoz musiqa haqida tushuncha".

II-chorak: "Zamonaviy musiqa va uning asosiy xususiyatlari".

III-chorak: "Sharq xalqlari mumtoz musiqasi".

IV-chorak: "Yevropa mumtoz musiqasi haqida tushuncha".

7-sinfda musiqa o'qitish jarayobi yakunlanadi. Unda quyi sinflarda olingan bilim va malakalar chuqurlashadi, takomillashib umumlashadi. Ayniqsa, musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, yangi qo'shiqlarni mustaqil o'rgatish, hayotimizdagi musiqa faoliyatiga aktiv qatnashishga o'rgatib borish ishi nihoyasiga yetadi. 7-sinf o'quvchilari psixologik-fiziologik xarakterga ko'ra diqqat-e'tiborlari turg'un, dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi. Ovoz shakllanishi notekis bo'ladi. Ular mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga doir albom, referatlar, sinf burchaklari va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga, musiqa savodiga doir ko'rgazmali qurollar tayyorlash vazifasini topshirishi mumkin. Shuningdek, mashhur bastakorlarga doir albomlar tayyorlashni ham topshirish mumkin. Vokal-xor ishlari: qo'shiq o'rgatish jarayonida ularni ovozlarni tarbiyalash ishi murakkablashadi. Chunki bu yoshda mutatsiya davri kuchayadi. Ayniqsa o'g'il bolalarda ovoz boylamlari yo'g'onlashib, ovoz registri bor oktavaga pasayadi. Natijada, o'quv va ovoz o'rtasidagi koordinatsiya buzilib, ba'zan bolalar intonatsiyani aniq kuylay olmaydilar. Bunday paytda o'qituvchi kuylash uchun qulay yo'llarini tushuntirishi kerak. Ovozni toliqtirmasdan, erki, ravon kuylashga o'rgatish kerak. Mutatsiya davrida bolalar ovozida kun sayin o'zgarish ro'y beradi. Buni hisobga olib o'z partiyasini ko'paytirish lozim. Yoki ovozlarni transportirovka qilib pastki tovushlarga tushirish lozim. Ovoz hajmi I-ovozlar (do_1-mi_2), II-ovozlar ($si_{kich}-re_2$) gacha bo'ladi. Tajribalar mutatsiya davrida ovozlarni to'g'ri taqsimlash, ovozlarni tekis chiqishi va qiyinchiliklarga duch kelmaslikka olib keladi. Tanlangan qo'shiqlar qahramona, lirik, estrada, o'zbek xalq qo'shiqlaridan bo'lsa, o'quvchilarga o'rganishga qiziqish uyg'otishi lozim. Ba'zi bir qo'shiqlarni solist yordamida ham o'rgatish mumkin. Qo'shiq kuylaganda dinamik belgilari, tempi, badiiy ijrosiga erishish zarur. 7-sinflarda musiqa savodini oldingi bilimlarga tayanib, notaga qarab kuylash intervallar, o'lchovlar, dinamik belgilar, parallel major va minor ladlari kabi mavzularda alohida to'xtab o'tib, musiqali misollar keltirishimiz mumkin. Musiqali misollarni kuylaydigan qo'shiqlardan tinglangan musiqiy asarlar asosida va o'zbek xalq qo'shiqlari misolida keltirish maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, ular musiqiy asarning shaklini ham bilishlari kerak. Musiqa tinglash bir muncha murakkablashadi. Chunki, darsning

asosiy qismi tinglash jaryonida o'tadi. Xalq qo'shiqlari, maqomlar, mumtoz xalq musiqasining ma'naviy uslubi kabi bilimlarga ega bo'lishlari va mustaqil fikr yurita olishlari kerak. Musiqani badiiy jihatdan mustaqil tinglab, uni mukammal idrok etib, musiqani tuzilishi, musiqa adabiyoti, savodi bilan yangi qo'shiqlar bilan tanishtirish; ularni hayotimizdagi ahamiyati haqida bilimlarni o'rgatish nihoyasiga yetadi. Chunki, 7-sinf o'quvchilarini dunyoqarashi rivojlangan bo'ladi, ammo ovoz apparatlarini shakllanishi notekis bo'ladi. Ularga mustaqil fikr yuritish, hikoya tuzish, musiqaga oid referatlar, sinf burchaklar, tadbirlar o'rkazish va ko'rgazmali qurollar tayyorlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarning bu ijodiy xususiyatlaridan foydalanib, musiqa san'atiga doir vazifalar topshirishi lozim. Lekin vokal-xor ishlarida, qo'shiq o'rgatish, ovoz sozlash jarayonida ularni ovozlari ehtiyot qilish, metodik to'g'ri yo'llanma berish kerak. Ba'zi vaqtlarda bolalar bilan suhbatlashish, ota-onalarni taklif etib, shifokorga farzandining sog'ligi haqida murojaat qilishni taklif qilish lozim. Chunki, 7-sinfda bolalarda mutatsiya davri boshlanadi. Mutatsiya davrigacha o'gil va qiz bolalarda ovoz apparatining tuzilishi o'xshash bo'lib, ular bir-biridan farq qilmaydi. Mutatsiya davrida esa ularning ovozlari o'zgarib, o'gil bolalarda ovoz registri jihatdan bir oktava pasayib, yo'g'onlashadi. Qiz bolalarda esa registr o'z o'rnida qolib, ovoz kuchi, tembrning mayinligi deyarli saqlanib qoladi. Shu boisdan o'gil bolalarda mutatsiya aktiv va sezilarli darajada, qiz bolalarda esa osoyishta va tekis o'tadi. Natijada ba'zi o'gil bolalar, qo'shiq kuylaganda sozga tusholmay, qiynaladilar. Baz'ilari esa kuchanib kuylaydilar. Bu davrda o'gil bolalar ovozi shartli ravishda erkakcha ovozga, qiz bolalar ovozi esa balog'atli xotin – qizlar ovoziga asta-sekin o'ta boshlaydi. O'gil bolalar tomog'ida ovoz boylamlari yo'gonlashadi, qizaradi, shishlar paydo bo'lishi mumkin. Natijada, diapazon qisqarib, yuqori pardalarda kuylash og'irlashadi. Tez charchash holatlari paydo bo'ladi. Mutatsiya davrida o'gil va qiz bolalarga qo'shiq kuylashga o'rgatish mas'uliyati talab etiladi. Qo'shiqlarni bolalar ovozi imkoniyatiga moslashtirib, dars davomida ularning ovozlari asrab-avaylab o'rgatish lozim. Ovoz partiyalarini aniq ajratib, ikki ovozda qo'shiq kuylatish, ovoz tarbiyasining muhim vositasidir. Bolalarning intizomida ham o'zgarishlar paydo bo'ladi. Emotsional uyg'onishlar, organizmdagi garmonik o'zgarishlar darsga nisbatan qiziqishini pasayishiga sabab bo'ladi. Bu davrda o'qituvchi mohirlik bilan musiqiy asarlar mazmunini hayotimiz bilan bog'lab o'tishi, uning vositasida ahloqiy go'zallik tarbiyasini berish dars mazmunini boshqa fanlar bilan bog'lab olib borishi lozim.

Vokal-xor ishlari va musiqa tinglash ishlarini amalga oshirishda quyi sinflarda olingan bilim va malakalariga va hayotiy tajribalarga suyanib, ish tutish yaxshi natija beradi. Qo'shiq o'rgatish metodlari 7-sinfda ham umumiy metodlaridan ko'p farq qilmaydi. Musiqa tanlashda esa mazmun jihatdan ancha murakkab bo'lgan asarlar o'tiladi. O'quvchilar, o'zbek xalq qo'shiqlari, maqomlari, mumtoz qo'shiqlari, yalla va laparlari, xalq musiqasining mahalliy

uslublari bilan tanishib, tuzilish mazmunini, tarixini o'rganadilar. Mumtoz qo'shiqlar kuylab, maqomlar kuylab, o'zbek xalq musiqasini durdona asarlaridan zavq oladilar.

7-sinfda:

I-chorak: "Xalq musiqasining mahalliy uslublari".

II-chorak: "Maqomlar haqida tushuncha".

III-chorak: "O'zbek musiqasi san'atining jahon musiqasi san'atida tutgan o'rni".

IV-chorak: "O'zbekistonning musiqiy madaniyati".

O'rganiladigan asarlar badiiy va g'oyaviy yaxlit taassurot qoldirish uchun ularni ma'lum mavzu asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday mavzular bir yoki bir necha dars asosida musiqa qonuniyatlarini ijrochilik turlari va uning ifoda vositasi bo'lgan ma'lum mazmun bilan bog'lanishi mumkin. Masalan: "Lad nima?", "Mahalliy musiqa uslublari", "Maqom", "Katta ashula janri", "Shashmaqom" shular jumlasidandir. O'qituvchi tanlagan musiqa asarlarini muayyan tartibga solgan holda, o'quvchilarni mutatsiya davrida ovozigacha ziyon yetkazmasligi uchun ularni ovoz diapazoni, ishtiyoq va zavqi, musiqa va ashula sohasidagi tayyorgarligi e'tiborga olinishi lozim. O'quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizi xorda ashula aytishdir. Ashula aytganda ovozni parvarish qilish va maxsus vokal-xor mashqlari, ya'ni uchtovushligi, past bosqich yoki yuqori bosqichdagi tovushlar orasida kvinta yoki otava miqyosidagi qismlarida jo'rsiz mashqlar, qo'shiqlardan parchalar aytib ovozni sozlab bir maromga solish katta ahamiyatga ega. Musiq tinglaganda va xor bo'lib kuylaganda, musiqa sohasidan olingan barcha nazariy ma'lumotlarni mashq qilish jarayonida mustahkamlaydi. Qo'shiq o'rgatish jarayonida o'qituvchi asarni ifodali ijro etib asar haqida qiziqarli obrazli kirish so'zi, asarning janri mazmuni ifoda vositalari haqida suhbatlar o'tkazishi muhim rol o'ynaydi. 7 yillik o'qish davrida, musiqa sohasida ish olib borish natijasida, o'quvchilar musiqa savodxonligiga ega bo'lib, musiqani ongli tahlil qila oladigan, yirik musiqa asarlarini radio va televedenie orqali, musiqa darslarida, konsertlarda mehr bilan tinglaydigan, badiiy havaskorlik to'garaklarida ishtirok etadigan va musiqani chin dildan sevadigan insonlar bo'lib yetishadilar.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki, dasturda keltirilgan mavzular ularning tarkibidagi kuy va qo'shiqlar o'zining rango-rang musiqiy ohangi bilan o'quvchilar musiqani tinglashga va kuylashga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi. Bularning barchasi o'quvchilarning his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Ushbu jarayonda o'rganish yuzasidan amalga oshiriladigan uslubiy vositalar haqida biz tadqiqotimizning keyingi faslida to'xtalamiz.

II.BOB. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his- tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishning tashkiliy-jarayoni.

2.1. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishning jarayoni.

O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqa darsining barcha faoliyatlarida amalga oshiriladigan ta'limiy jarayonning o'rni muhimdir. Chunki, darsning har bir faoliyatida o'rganilayotgan o'quvchilarning yoshi va psixologik-fiziologik nuqtai nazaridan ta'sir etib, ularga ma'lum bir his-tuyg'u va fikrlashni shakllantira boradi. Biz ishimizning ushbu faslida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning dastlabki jarayonlarini yoritishga harakat qildik.

O'quvchilarda ilk musiqiy tushunchalar albatta dastlab maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan musiqiy mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. Sekin-asta bola ulg'ayishi davomida insondagi his-tuyg'u rivojlana boradi. Maktab davridan boshlab o'quvchilarning hayotiy tajribalariga tayangan holda har bir musiqa asosi zahirida ma'lum his-tuyg'uni va fikrlar aksi namoyon eta boshlaydi.

Musiqa mashg'ulotlari jarayonida o'quvchi hayotiy voqelikni musiqaviy obrazlar orqali idrok etib boradi. O'quvchilar yoshiga mos musiqa asarlari haqida unutilmas taassurot qoldiradi, ruhiy dunyosini boyitadi. Boshlang'ich ta'limda musiqaviy ta'lim va tarbiya badiiy adabiyot va tasviriy san'at bilan uzviy bog'langan holda amalga oshiriladi. Qo'shiq kuylash turli janrdagi musiqa asarlari, xususan milliy cholg'u asalarini tinglash, musiqiy o'yinlar bilan shug'ullanish va raqsga tushish jarayonida musiqa mashg'ulotlari ko'pincha badiiy so'z bilan bog'lanadi. O'quvchi badiiy obrazlarni yorqin tasavvur etishi va chuqur idrok qila olishi uchun tasviriy san'at asarlaridan unumli foydalaniladi. Ayniqsa, ayrim milliy musiqa asarlarini tinglashdan yoki kuylanadigan qo'shiq namunasidan o'quvchilar ongida hosil bo'ladigan tasavvurlarni yanada boyitish va aniqlashtirish maqsadida asar syujetiga xos badiiy sur'atlardan foydalanish ham yaxshi natija beradi. Turli metodlardan foydalanib, o'tkazilgan har bir musiqa mashg'uloti o'quvchilarda badiiy – estetik zavq uyg'otadi, ularning his-tuyg'ularini rivojlantiradi, ijodiy fikrni va nutqni o'stiradi. Bundan tashqari musiqaviy o'yin va raqslar bolalardan ritm tuyg'usi,

chaqqonlik va harakatchanlik malakalarini rivojlantiradi hamda qomatning to'g'ri o'sishiga yordam beradi.

Maktabda olib borilayotgan asosiy mashg'ulotlar, masalan, hisob mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning ko'proq abstrak fikrlash qobiliyati va mantiqiy xotira kuchi o'sib borsa, san'at mashg'ulotlari jarayonida esa ularning obrazli fikrlashi va obrazli xotirasi yaxshi rivojlanadi. Bu har ikkala psixologik xususiyatlarning parallel rivojlanishi o'quvchining aqliy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktabda musiqa o'qituvchisining asosiy vazifalari nimadan iborat? Shuni qayd etish lozimki, musiqa mashg'ulotlarining oldiga har qanday pedagogik maqsad va vazifani amalga oshirish uchun, eng avvalo o'quvchining bir qancha komponentlaridan tashkil topgan musiqa o'quvi qobiliyatini tinmay o'stirib borish shart. Musiqa o'quvi qobiliyati asosan quyidagi musiqa o'quv turlaridan iborat bo'ladi.

Musiqa o'quvi (musiqiy tovushlarning past-balandligini his qilish qobiliyati); tembr o'quvi (musiqa tovushlarining bir-biridan farq qiladigan o'ziga xos jihatlarini ajrata bilish qobiliyati); ritm tuyg'usi va musiqa xotirasi.

O'quvchilarning bu psixologik qobiliyatlari musiqaviy qobiliyatlarini amalga oshirish jarayonidan muntazam rivojlantirib boriladi.

1. O'quvchilarning musiqaga qiziqishini oshirish va sevishtga o'rgatish.
2. Musiqa asarlari bilan tanishtirish jarayonida o'quvchilarda emotsional his-tuyg'ular hosil etish yo'li ukarning musiqa haqidagi tasavvurlarini boyitish.
3. O'quvchilarni oddiy musiqa tushunchalari bilan tanishtirish, musiqa tinglash, qo'shiq kuylash, musiqa bilan harakat, raqsga tushish va o'quvchilarning oddiy musiqa asboblari kuy chalish ko'nikmalarini hosil etish va ijodiy qobiliyatini o'stirib borish.
4. Musiqa asarlaridan ta'sirlanish, shu asosida musiqaviy did va badiiy muhokama yuritish malakalarini rivojlantirish.
5. O'quvchilar ovozini asrab tarbiyalash qo'shiq kuylashning elementar ko'nikmalarini hosil etish, qo'shiqlarni sodda, ravon, erkin, tabiiy va ifodaviy kuylashga o'rgatish.
6. Turli musiqa mashg'ulotlari jarayonida improvizatsiya qilish, musiqadagi badiiy obrazni o'yin va kuylash vositasida ifoda etish, ma'lum musiqaviy temaga yangi o'yin topish.
7. Musiqaviy tarbiya mashg'ulotlarini maktab hayoti bilan bog'lash, maktabda o'tkaziladigan turli mashg'ulotlarda va marosimlarda o'rganilgan kuy va qo'shiqlardan keng foydalanish, turli ertaliklar, konsertlar uyushtirish vositasida musiqa kundalik hayotimizning ajralmas yo'ldoshi ekanligi haqida bolalarda tushuncha hosil qilish.

Maktabda olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari asosan, qo'shiq kuylash, musiqa tinglash, musiqaviy riymik harakatlar va o'quvchilar yoshiga mos bo'lgan cholg'u asboblarda oddiy kuylar chalishni o'rganishdan iboratdir.

Qo'shiq kuylash mashg'ulotlarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Qo'shiq kuylash musiqa bilan shug'ullanishda o'zining yetarli va oson amalga oshirishi tufayli o'quvchilar diqqatini tez jalb etadi. Eng muhimi shundaki, o'quvchilar do'stlari bilan qo'shiq kuylaganda o'z shaxsiy ijrosini nazorat qilib boradi, yon-atrofdagi o'quvchilar ovozi bilan o'zini solishtirib ko'radi. Bu birinchidan bolada musiqaviy qobiliyatlarining har tomonlama rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi, ikkinchidan bolada o'z-o'zidan ijodiy intilish kuchayadi. Uchinchidan, qo'shiq kuylash jarayonida o'quvchilarning fikri, nutqi, idroki o'sadi, ovoz va nafas apparati yaxshi rivojlanadi.

Al-Farobiyning ta'biricha, ovoz apparati eng takomillashgan, eng hushohang va jonli musiqa asbobidir. Musiqa ijrochiligida eng qulay vositadir, chunki, cholg'uchilikdan ko'ra qo'shiq kuylashni turli sharoitlarda sinf va sinfdan tashqari tez va oson tashkil etish mumkin, shuning uchun, maktab hayotidagi ertaliklarda, sayl vaqtida, umuman har qanday sharoitlarda o'quvchilar qo'shiq kuylash faoliyati bilan ko'proq shug'ullana oladilar. Musiqa madaniyati fani o'qituvchilari sinf va sinfdan tashqari mashg'ulotlarni asosida olib borishlari o'quvchilarda musiqiy his-tuyg'ularini shakllana borishida keng imkoniyatlar yarata boshladi. Qo'shiq o'quvchilarda turli kayfiyatlarni hosil qila oladi. Shunday ekan, qo'shiq kuylash katta tarbiyaviy ahamiyatga molik.

O'quvchilarga qo'shiq o'rgatish va uni aytib berish o'qituvchidan katta mas'liyat talab etadi. Zeroki, qo'shiq kuylash murakkab psixologik-fiziologik jarayon bo'lib nutq ovoz organi va eshituv va nafas olish apparatlarining uzviy koordinatsiyasi natijasida amalga oshadi. Hatto, kishi biror qo'shiqni hayolan kuylaganda ham ovoz pardalari ma'lum miqdorda harakatlanib turishi fanda ma'lum. Bolalarning ovozi pardalari esa kattalarinikidan o'ta nozikligi, murdligi va muntazam rivojlanib borishi bilan farq qiladi. Maktab yoshidagi o'quvchilarning ovoz pardalari katta odamlar ovozi pardalaridan 2-2,5 marta kichikdir. O'quvchilar ovoz pardalarining tebranish amplitudasi qisqa va tez harakatlanishi tufayli ular ovozi ingichka, yengil, nozik va registr jihatidan ancha yuqori bo'ladi.

Tomoqda hosil bo'lgan kuchsiz bo'lib, u rezonatorlar orqali kuchayib, jaranglaydi. Shu sababdan ovoz diapazoniga mos tushmaydigan qo'shiqlarni kuylash va zo'r berib ortiqcha baqirish bolalarning ovoz apparatiga putur yetkazadi va ularning turli patalogik kasalliklarga chalinishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun musiqiy ta'lim va tarbiya jarayonida bolalar ovozini asrab tarbiyalash muhim vazifalardan biridir.

O'quvchilarning ovozini asrab tarbiyalashni zarur shartlaridan biri qo'shiqlarni ularning yoshiga va ovoz diapazoni normalariga qat'iy rioya etgan holda tarbiyalashdan iboratdir.

Kuylash orqali fikr, nutq va idrokni o'stirish qo'shiq kuylash musiqa mashg'ulotlarining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Qo'shiq kuylash musiqa bilan shug'ullanishda o'zining yengil va oson amalga oshirilishi tufayli o'quvchilar diqqatini jalb etadi. Eng muhimi shundaki, o'quvchi o'rtoqlari bilan birga qo'shiq kulaganda o'z shaxsiy ijrosini nazorat qilib boradi, atrofdagi bolalar bilan o'zining ovozini solishtirib ko'radi. Bu esa birinchidan, o'quvchilar musiqiy qobiliyatining har tomonlama rivojlanishiga katta imkoniyat yaratadi, ikkinchidan o'quvchida o'z-o'ziga ijodiy intilish kuchayadi, uchinchidan, qo'shiq kuylash jarayonida o'quvchining fikri, idroki o'sadi, ovoz va nafas apparatlari yaxshi rivojlanadi.

Fiziolog va vrachlar fikriga ko'ra, muntazam ravishda qoidali qo'shiq kuylash gimnastikasining eng yaxshi formasi bo'lib, u o'quvchilar ko'krak qafasi va nafas olish apparatining yaxshi rivojlanishiga yordam beradi.

Musiqiy tarbiya ishini to'g'ri qo'yib, o'quvchilarning yoshiga va ovozigacha mos qo'shiqlarni kuylatish natijasida ularning ovoz apparati yaxshi rivojlanadi. Bunday holda qo'shiq repertuarlarini tanlashda o'quvchilarning quyidagi ovoz diapazoni normalariga rioya etish tavsiya etiladi.

Normal rivojlangan bolalar ovozigacha xos bo'lgan bola ovozining shakllanishidagi asosiy davrlar bilan tanishamiz.

1. 7-9 yoshli bolalarning ovozi o'zining yengilligi, tiniqligi, yorqinligi hamda ovozning tanglaydan chiqishi bilan ajralib turadi. O'g'il va qiz bolalarning ovozi bir-biriga o'xshaganligi sababli ba'zi vaqtda qo'shiqni kim ijro etayotganligini o'g'il bolami, qiz bolami bilish qiyin. Ovozlarining deyarli hammasi diskant ovozlaridir. Ovoz hajmi do^1-re^2 dan do^2-re^2 gacha birinchi oktavadagi fa, sol, lya tovushlari (primar zonasi) eng yaxshi sado beradigan tovushdir.

2. 10-11 yoshli bolalarning ovozi ancha kuchli va quyuqroq eshitiladi. Quyi tovushlarda, ko'krakdan chiqarib aytish elementlari uchraydi. Bu yoshda ovoz shakllana boshlaydi, hiyla muayyan tembrdagi ohang paydo bo'ladi. Shu tufayli o'g'il bolalar ovozi diskant va altga bo'linadi.

Qiz bolalarning ovozi yengil va tiniq bo'lib, ba'zan ularda tembr alomatlar ham uchraydi, lekin o'g'il bolalardagidek ravshan bo'lmaydi. Ovozning 1 va 2 da bo'linishi shartli bo'lib, asosan diapazon kengligi va musiqa o'quvchining sifatiga qaratiladi.

Diapazon: diskantlar (1 -ovozlar do_1 – dan fa_2 , primar tovushlar sol_1 , lya_1 , si_1 , altlar 2 -ovozlar si_1 – dan re_2 gacha, primar tovushlar fa, sol gachadir).

Bolalarning yoshiga qarab ovozini xarakterlashda shu narsani nazarda tutish kerakki, bolalar ovozi ko'p vaqt normadan chiqib ketadi. Odatda bu hol bolalarda barvaqt kattalarga xos

ko'krak tovushi paydo bo'lishida ko'rinadi. Bunday ovozlari o'zining kuchliligi va tozaligi bilan ajralib turadi, biroq bunday ovozlari g'ayri tabiiy va yoqimsiz eshitiladi. Ba'zan buning aksini ham bo'ladi, ya'ni ovozning rivojlanishi kechikadi-da, uzoq vaqtgacha, butun diapazon davomida bolalik ovozi saqlanib qoladi.

Bolalar bilan olib boriladigan vokal ishlarida bu hodisalarni hisobga olishi kerak.

Mutatsiya: o'g'il bolalar ovozini saqlab qolishda o'tish davri katta ahamiyatga ega, bunda bolalik ovozi erkak ovoziga aylanadi ya'ni mutatsiya (o'zgarish) yuz beradi.

O'g'il bolalarda mutatsiyaning boshlanish davri odatda, jinsiy balog'atga yetish davriga to'g'ri keladi. Bu narsa ko'proq 12-15 yoshlar o'rtasida yuz beradi, lekin ba'zan mutatsiya erta 11-12 yoshda, ba'zan kechroq 16-18 yoshda sodir bo'ladi.

Ba'zi vaqtlarda mutatsiya butunlay bo'lmay qoladi, u vaqtda bunday erkaklarda hayotning oxirigacha "ingichka" ovoz saqlanib qoladi.

Mutatsiyaning boshlanishi ko'pgina sabablarga, masalan iqlimga bog'liqdir. Mamalakatning shimoliy tomonida mutatsiya kech boshlanadi, janubiy tomonida erta boshlanadi. O'zbekistonda mutatsiya ko'pincha 12-13 yoshdan boshlanadi.

Mutatsiyaning turi va davom etishi turlichadir. Mutatsiya davri ko'pincha bir yilga yaqin davom etadi, ba'zan bir necha hafta, bir necha oy va hatto bir necha yil (5 yilgacha) davom etish hollari ham uchraydi.

O'g'il bolalarda mutatsiya boshlangan paytini o'z vaqtida payqash va unga vokal rejimini to'g'ri belgilash uchun mutatsiyaning eng xarakterli belgilarini bilish kerak. Mutatsiya boshlanishidan bir necha oy oldin mutatsiya boshlanganligining dastlabki belgilari paydo bo'la boshlaydi, ovoz u qadarli mustahkam bo'lmaydi, goh-goh intonatsiyada sohtalik yuz beradi, qo'shiq aytgisi kelmaydi yoki agar aytsa ham past tessiturada aytishga harakat qiladi. Bu belgilar bir paydo bo'lib, bir yo'qolib turadi. Bu vaqtda o'qituvchining juda ziyrak bo'lishi, butun diqqat-e'tiborini shu belgilarni o'z vaqtida faxmlashga jalb qilishi kerak.

Bolalar ovozini saqlash metodlari. Bolalar ovozi apparatining tuzilishi va hushovozlikning shakllanish xususiyatlarini chuqur o'rganish bolalar ovozini saqlash va tarbiyalash uchun ma'lum metodika ishlab chiqishni zarur qilib qo'ydi. Bu ikki tushunchani (bolalar ovozining shakllanish va uni saqlash tushunchasini) bir-biridan ajratib bo'lmaydi. Chunki, bolalarni qo'shiq kuylashga to'g'ri o'rgatish ovozni saqlashning eng muhim usulidir, demak umumiy ta'lim maktablarida musiqa tarbiyasini amalga oshiruvchi musiqa o'qituvchilarining roli juda kattadir. Bolalarni qo'shiqsevar qilib tarbiyalash, o'qituvchilarning malakasiga, bolalar ovozidagi xususiyatlarni bila olishiga, qo'shiqqa o'rgatish metodikasini qanchalik egallaganligiga bog'liqdir.

Har bir o'qituvchi o'quvchilarni qo'shiq kuylashga o'rgatar ekan, u qo'shiqni bolalarga xos go'zal, jaranglagan, tiniq tovush bilan qiynalmasdan, erkin hech qanday zo'riqishsiz aytadigan qilib tarbiyalashga intilishi kerak. Bolalarning vokal-xor malakalarini egallashi, qo'shiqchilik qobiliyatini doimiy o'stirib borishi, ijrochilik imkoniyatlarini rivojlantirish ustida muntazam ish olib borishi kerak. Qo'shiq kuylash malakalarini egallash ustida ish olib borilganida yelkani bukchaytirib yoki boshni orqaga tahlab o'tirishning nafas olishga va tovush hosil qilishga yomon ta'sir qilishini ko'rsatadigan har xil ko'rgazmali qurollardan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Sinfga bolalarning qo'shiq kuylayotganda to'g'ri va noto'g'ri holatda turganligini ko'rsatadigan plakatlar osib qo'yish mumkin.

Bolalar musiqa tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqa tinglash orqali ilk musiqiy tushunchalarni shakllantirish. Musiqani tinglay bilish va undan estetik zavqlana olish ham katta san'at hisoblanadi. Kishida musiqa tinglash madaniyati yoshlikdan rivojlana boshlaydi. Bog'chada amalga oshiriladigan musiqa tinglash esa uning poydevoridir. Zotan, bola musiqa mashg'ulotlarining barcha elementlari jarayonida ham musiqa tinglab, uni idrok etadi. Ammo mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida o'ziga xos jiddiy vazifalar turadi. Avvalo, shuni eslatish kerakki, kishining kuylash imkoniyatidan ko'ra tinglash imkoniyati ancha keng bo'ladi. Masalan, milliy musiqa, orkestr, xor, yakka, cholg'u ijrosidagi asarlarni kuylab emas, balki faqat tinglab idrok etish mumkin.

Musiqa tinglashda bolalarning badiiy idroki yaxshi rivojlantirib boriladi. Mashg'ulotning musiqa tinglash qismi oldida quyidagi vazifalar turadi:

- bolalarni o'z idrokiga xos xalq, milliy klassik va zamonaviy musiqa namunalari bilan tanishtirib borish;
- bolalarning musiqani idrok qilish qobiliyatini, musiqada tasvir etilgan badiiylikni his qilish qobiliyatlarini rivojlantirib borish;
- musiqa haqida boshlang'ich ma'lumotlar berish, o'rganiladigan asarlar nomlarini eslashga, ularning mazmuni, xarakteri va ifoda vositalarining farqiga borishga hamda tinglangan asarga ma'lum miqdorda badiiy baho bera olishga o'rgatish.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini diqqati uncha barqaror bo'lmaganligi tufayli ular yorqin yangraydigan kichik-kichik musiqa asarlarini idrok etishga qobil bo'ladilar. Ular, ayniqsa, kichik qo'shiqlarni yaxshi idrok etadilar, chunki, so'z va ohang birligi musiqa mazmunini oson idrok etishga yordam beradi. Xususan, tarbiyachi qo'shiq kuylaganda uning tanish ovozi va ifodali intonatsiyasi, mimikasi va ishoralari, o'quvchilarni maftun etadi. Shu vaqtda o'quvchilarda hosil bo'ladigan zavqlanish, ajablanish, quvonish kabi holatlarni kuzatish mumkin. Ammo bu holatlar tez uyg'onib, tez so'nadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, tadqiqotimizning ushbu faslida biz o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning tashkiliy jarayonini yoritishga harakat qildik. Bu esa o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishning o'ziga xos usul va vositalarini ishlab chiqish imkoniyatlar yaratadi. Biz bu haqda tadqiqotimizning keyingi faslida to'xtalamiz.

2.2. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishning usul va yo'llari.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda tinglash va kuylash uchun berilgan qo'shiq va kuylarning mazmunini, xarakterini tahlil qilishni o'quvchilarga dastlabki mashg'ulotlardan o'rgatib borish, keyinchalik ularda turli shakldagi musiqiy asarlar mazmunini ongli ravishda anglab, idrok etishlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Biz ishimizning ushbu faslida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishning o'ziga xos usul va yo'llarini ishlab chiqishga harakat qildik. Bu borada o'quv faoliyatlari asosini tashkil etgan musiqa tinglash faoliyatni mazkur muammomizni yoritishda asosiy manba sifatida tanladik. Mazkur muammo yuzasidan tadqiqot-tajriba-sinovlarini Qarshi shahridagi 21-o'rta ta'lim maktabining 1-4sinflarda olib bordik.

Tadqiqotimiz davomida quyi sinflarda musiqa madaniyati darslarining musiqa tinnglash va kuylash faoliyatlarida olib boriladigan ishlarning mazmuni sinflar kesimida o'rganishni maqsad qilib oldik.

Musiqa madaniyati darslarida musiqa tinglash va kuylash faoliyatlarini to'g'ri tashkil qilinishi o'quvchilarning musiqiy didini shakllantirishda u orqali musiqiy his-tuyg'ularini rivojlanishida ijobiy samara beradi. Ayniqsa, musiqa tinglash hamda kuylanadigan qo'shiqlarning umumiy jihatdan ko'rinadigan o'ziga xos xususiyati kuy, musiqa, qo'shiqning matni, ijrochilik mahoratiuning insonga kompleks ta'sir qilishini ta'minlaydi. Tadqiqot ishimizning oldingi faslini yoritishda keltirilgan ma'lumotlardan ma'lumki, kuy va uning musiqiy ifodasi insonning hissiyotiga, uning sezgilari va ongiga ta'sir ko'rsatadi. Demak, qo'shiqning ta'siri murakkab va kuchlidir. Qo'shiq matni o'quvchi ongiga ta'sir etishning doimiy omili sifatida kuyga jo'r bo'ladi va kuy ham qo'shiq ham she'rning ritmikasiga moslanishi lozim. Bundan tashqari, musiqa va qo'shiqning sifatli ijro qilinishi ham g'oyat muhimdir.

Ijro etiladigan qo'shiq, tinglanadigan kuy, uning ohangdor va intonatsion ifodalanishi, qo'shiqning she'riy asar sifatidagi g'oyaviy mazmuni va badiiy shakli nihoyat, musiqa hamda qo'shiqni yaxshi ijro etishning mujassam qotishmasidir. Mana shu elementlarning qay biri o'quvchilar hissiyotini va ongiga eng kuchli ta'sir ko'rsatadi? – degan savolga javob berib bo'lmaydi. Binobarin, bizningcha mazkur elementlarning birlashuvi bilangina hissiy-ma'naviy ta'sir ko'rsatishga erishish mumkin.

Kuy va qo'shiqlarning tuzilish elementlari o'quvchi shaxsining turli sohalariga: ongi, irodasi, sezgisi, musiqiy idrokiga o'z holicha ta'sir ko'rsatsa ham, ijro etilayotgan qo'shiq va musiqaning jo'rliги yaxlit birgalikda idrok qilinadi. Ana shu ko'pyoqlama murakkab ta'sir ham yagona jarayon sifatida amalga oshadi.

Shuningdek, kuylanadigan ayrim qo'shiqlarning ta'siri qo'shiq jo'rligisiz ijro etiladigan musiqaning ta'siridan kuchliroq bo'ladi. Musiqa madaniyati darslarida tinglash va kuylash faoliyatlari boshqa faoliyatlarga qaraganda o'quvchilar orasida eng sevimli va eng qiziqarlisidir.

Biz maktabda 1-4 sinf o'quvchilari orasida tajriba-sinov o'tkazish jarayonida anketalshtirish o'tkazdik. Dars boshlanishidan oldin “sizga musiqa faoliyatining qaysi turi ko'proq yoqadi?” degan savol yozilgan anketani tarqatdik.

Dars tugagach, o'quvchilardan mazkur anketalarni yig'ib oldik. Hammasi bo'lib, 270 nafar o'quvchilarga tarqatilgan anketalarning 70 foizida musiqa faoliyatini sevimli turi tinglash va qo'shiq kuylash qayd etilgan. Bu esa o'quvchilar o'rtasida musiqa tinglash va qo'shiqchilik faoliyati keng ommalashganining dalilidir.

Biz yuqorida tinglash va kuylash uchun berilgan kuy-qo'shiqlar tuzilishining elementlarini ko'rsatgan edik. Ko'pchilik san'atning kuchi va o'quvchi yoshlarga ta'sirining xarakteri mazkur elementlarning har biri bilan bog'liq provard natijada ularning ketma-ketligi bilan belgilanadi va bu birlik yangrayotgan kuy va qo'shiqni idrok etayotgan kishiga yaxlit ta'sirini vujudga keltiradi. Bundan esa har bir elementni ko'rib chiqish va kuy-qo'shiq o'quvchilarga ta'sir etishning asosiy jihatlarini aniqlash zarurligini ang lash mumkin.

Musiqiy asar ijrochiligi san'atining eng muhim elementi, uning emotsional o'zagi hisoblanadi. Kuyda o'ziga xos yo'sindagi ohangdor tovushlar shaklida qo'shiqning g'oyaviy, tarbiyaviy va emotsional mazmuni aks etadi.

Qo'shiq kuyini qandaydir muayyan, doimiy bir xil talablar doirasiga kiritib qo'yish to'g'ri emas. Binobarin, qo'shiqda ham kuyida ham uyg'unlik uslub, ta'sirchanlik, ifodalash vositalarining har xil turlari bo'lishi mumkin.

Kuy va qo'shiqlar faqat quvonchli, lirik, ko'tarinki hissiyotlarni uyg'otmaydi. U g'amginlik, g'azablanish holatlarini ham vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, qo'shiq ham kuy ham faqat ijobiy kayfiyatlarni emas, balki salbiy kayfiyatlarni ham paydo qiladi. Bularning

hammasi hayotning turli tomonlarini – quvonch, tashvish, orzu-umid, ayriliq va hokazolarni aks ettiradigan qo'shiqning mazmuniga bog'liq. Endi biz o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda asosiy omil hisoblangan musiqa musiqa qabul etishni tashkil etish muammolarini yoritishga harakat qilamiz.

Musiqa san'at sifatida ijtimoiy ong formasidir. U kishining his-tuyg'ularini ifodalash bilan birga hayotiy voqelik va davr in'ikosidir. Musiqa darsi jarayonining asosiy omillari sifatida quyidagilar mavjud: musiqani eshitib zavqlanish, qo'shiq ijro etish, musiqa savodiga doir xususiyatlarini anglab olish, raqdg'a tushish va musiqa ostida utrli hasrakatlarni bajarish, chapak va cholg'u asboblari ijrosini, maqsadini idrok etib borishdan iborat: ijro etib musiqaga jo'r bo'lish uchun belgilangan musiqa darsini yuqoridagi maqsadni amalga oshirishda eng avval o'quvchilarni tinglay olish madaniyatiga o'rgatish kerak. Musiqiy tarbiya vazifalarini bajarish uni amalga oshirish uchun o'quvchilarni tinglashga o'rgatish kerak. Aksariyat ko'pgina odamlar jiddiy musiqani tinglashmaydi, chunki uni tushunmaydi. Tushunish uchun esa tayyorgarlik talab etiladi. Agar tayyorgarlik ko'rilmasa bilim ham bo'lmaydi. Tinglashga o'rgatish qo'shiq ijro etishdan murakkabdir.

O'quvchilarni musiqadagi yuksak badiiyligini tanishtirish lozim. Bunday asarlar o'quvchilarni dunyoqarashini kengaytiradi va musiqiy didni tarbiyalaydi. Ko'p sonli savodxon tinglovchilarni tayyorlash uchun musiqa shaydolarini bolaligidan musiqani tushunishga va uni sevishga o'rgatish lozim. Musiqani sevish-bu musiqani doim tinglash demakdir. Musiqani tuishunish bu – his etish, tahlil qilish, bilish demakdir.

Avvalambor o'quvchilarni tinch va boshidan oxirigacha asarni tinglashga o'rgatishimiz kerak. O'qituvchi o'quvchilarga asarni tinglash jarayonida nimalarga e'tibor berish lozimligini aytib o'tishi kerak. O'qituvchi tinglash davomida rahbarlik qilishi lozimdir. Eng muhimi tinglanayotgan asar o'quvchilar yoshiga mos va esda qoladigan bo'lishi lozimdir.

Musiqa tinglashda o'qituvchi oldiga qo'yiladigan vazifalar:

- musiqa san'atiga havas uyg'otish, musiqa tinglash va amaliy vositalar orqali qiziqtirish bolalarda musiqiy ehtiyoj kuchaytirish, o'quvchilarda badiiy taassurotlarni to'plab borish. (savol-javob, suhbatlar orqali).

Buning uchun:

1. Tinglanayotgan asarni oddiy musiqiy pedagogik tahlil etish.
2. Tinglashda oddiy musiqa terminlarini va atamalarini qo'llab borish.
3. Kuyning oddiy tuzilishi, uning ifoda vositalarini ritmik tuzilishlariga qarab chapak chalish va kuylashga o'rgatish.
4. Musiqa ijodkorlari, ijrochilar turlari cholg'u asboblari bilan tanishtirish.

Shuningdek,

1. Musiqiy janrlarni bilish. (raqs, balet, opera va boshqalar).
2. Asarning tuzilishini bilish. (bandli, ikki qismli yoki uch qismli).
3. Kompozitorlarning hayoti va ijodini bilish.
4. Musiqiy nutqini eklementlarini bilish. (xarakteri, tempi, dinamikasi, musiqiy ifoda vositalari).

5. Musiqiy estetik ma'lumotlarni bilish. (tinglash madaniyati).

O'quvchilar 1-sinfdanoq musiqada mazmun borligini, u kishilarning hayotini aks ettirishini, bilishlari lozim. Shuningdek, musiqada shakl borligini bilishlari kerak (mazmun-bu ifoda etish yoki tasvirlash, shakl –bu kompozitorni asar mamunini ifoda etishga bog'liq).

O'quvchilarda musiqa didini tarbiyalashda o'qituvchining mahorati muhim rol o'ynaydi.

Musiqa tinglash 4 bosqichda olib boriladi. Bular:

1. Asarni tushunish uchun bolalar diqqatini jamlash va asar haqida o'qituvchining kirish so'zi.
2. O'qituvchi ijrosida yoki audio yozuvida musiqiy asarni tinglash.
3. Asarni suhbat yo'li bilan musiqiy tahlil etish va chorak mavzusini yoritish.
4. Asarni to'liq qayta tinglash so'ng asar haqida o'quvchlarning umumiy taassurotlari yuzasidan yakuniy suhbat o'tkazishdan iborat.

2- sinfda “Yakkanavozlik, jo'rnavozlik va jo'rsozlik” mavzusini yoritishda tinglash madaniyatini tashkil etgan dars tuzilmasi. O'quvchilarga yangi mvzularni tushuntirishdan avval o'tilgan mavzular mustahkamlanadi va yangi mavzuga bog'langan holda dars olib boriladi. Ushbu darsda “Bumerang texnologiyasi” qo'llaniladi. Sinf o'quvchilariga savol beriladi: “Musiqachilar kimlar?”. Sinf o'quvchilarining javobidan so'ng quyidagicha to'ldiriladi: bizni juda ko'p tovushlar qamrab olgan; uyda, ko'chada, bog'da, dalada (aslida haqiqiy narsa-hodisalarda mujassamlashgan). Ijodkor ularni asboblar yordamida o'rgatadi. Haqiqiy musiqiy tovushlar musiqa asboblarida yashaydilar. Shuningdek, xonandalar tovushlarida, xorda. Sozandalar ijro etgandagina tovushlar jaranglaydilar. Endi shundan kelib chiqib, bu jarayon xarakter xususiyatiga qarab yakkanavozlik, jo'rnavozlik va jo'rsozlikka bo'linadi. Bir qo'shiq bir ovozda ijro etilsa, “yakkanavoz” , ikki, uch, to'rt kishi birga ijro etilsa, “Jo'rnavoz” yoki shu ijroga sozandachilar ham qo'shilsa jo'rsoz deyiladi. Tarqatma materiallar yordamida dars mavzusi tushuntiriladi. O'quvchilar 3 guruhga bo'linadilar.

- 1.Guruhchalarga materiallar tarqatiladi.

1-topshiriq. Ushbu rasmda berilgan yakkanavozni, jo'rnavozni va jo'rsozni toping. (1 rasm). Tanlangan javobni kartochkalarda tasvirlangan rasm yonidagi bosh katakchaga joylashtiring. (2 rasm).

To'ldirilgan kartochkalr doskaga ilinib qo'yiladi. (har bir guruh kartochkalari alohida skoch yordamida ilinadi). Har bir guruhdan vakil chiqib mavzuni tushuntirib beradi, har bir kartochkalardagi guruh javoblari tahlil qilinadi va xulosa keltiriladi.

Tinglash madaniyati siz hayotda juda ko'p musiqa tinglaysiz. Radio-televedinie orqali, teatr va konsertlarda, kino lavhalarida maktabda va uyda. Musiqa yangraydi. Xalq o'z hayotini qo'shiqda, ohangda, raqsda ifoda etadi. Ko'p musiqalarni kompozitorlar yaratadilar. Ular qo'shiqlar, kuylar, opera, baletlar xor va orkestr uchun asarlardadir. Musiqa tinglashni bilish zarurdir. Buning uchun quyidagi qoidalarga rioya etish juda zarurdir.

1. Musiqani diqqat bilan tinchlikda tinglang.
2. To'g'ri va qulay o'tiring.
3. Shovqin qilmang, gaplashmang, do'stlaringizga musiqa tinglashga xalaqit bermang.
4. Musiqa to'xtaganida qalbingizdagi musiqani tinglang va fikr yuriting.

Musiqa sizda qanday taassurot qoldirdi? Musiqa tinglaganda ko'z oldingizga nima keldi? Kompozitor ushbu musiqa orqali nima demoqchi? Musiqa qanday o'zgardi? Kim uni ijro etdi? (yakkanvozm?, jo'rnavozlikmi?, jo'rsozmi?, orkestrmi? va boshqalar).

5. Diqqat bilan o'qituvchini savolini eshiting, o'z taassurotlaringiz haqida gapirib bering, musiqa haqida fikr yuriting, asar haqidagi suhbatda qatnashing.

6. Uyda musiqa tinglang.

Musiqada ijodiy jarayonni tashkil etish muammolari o'quvchilarning musiqa madaniyati darsiga bo'lgan qiziqishni o'stirish uchun dars samaradorligini oshirish, o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda darslarni to'g'ri tashkil etish davr talabidir. Musiqa ta'limi jarayoni nazariy jihatdan tahlil qilish, ilg'or o'qituvchilar tajribalarini o'rganish, darsni turli bosqichlarga bo'lib o'tish ijobiy natijalar beradi.

1. O'quvchilarni darsga moslashtirish, hayrixohlik munosabatlarini hosil qilish, bajariladigan ishlar bilan tanishtirish, yakka tartibdagi va jamoa vazifalarini belgilash.

2. O'quvchilarning bilim va malakalarini mustahkamlash. Bunda o'quvchilarning mustaqil fikrlay olishlari uchun bilimlar doirasini kengaytirishga, mavzuga ijodiy yondoshish ko'nikmalarini o'stirishga, fikrlash qobiliyati faolligini takomillashtirishga erishiladi.

3. Eshitish, idrok etish orqali bilimlar darajasini aniqlash. Shu jarayonda o'quvchilarning idrok etish qobiliyatlari tekshirib ko'riladi.

O'quvchilarni musiqa darsiga tezda jalb qilib, shu darsga moslashish alomatlarini shakllantirib borishga ham e'tiborni qaratmoq lozim. Buning uchun:

Darsning boshlanish qismida quvnoq, sho'x, jozibali biror musiqa asari tinglash tavsiya etiladi. Darsda tinglangan bu musiqa o'uvchilarda ko'tarinkilik kayfiyati hosil qiladi. Eng muhimi darsning sifatli, qiziqarli o'tishiga yordam beradi. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarda

hosil bo'lgan bilim darajasini o'rganish hamda oldingilari bilan taqqoslab borish muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodni boshlanishi, yorqin namoyon bo'ladi, yosh o'quvchilar judayam kashfiyotchi bo'ladilar: talaffuzni, taqlid qilishadi, obrazli ertak mazmunlarini yengil qobil etishadi, hikoyani qo'shiqlarni, musiqiy asarlarni, tabiatan aktiv qabul qilishadi. Yosh o'quvchilarda tabiatan aktivlik berilgan bo'lib, ularda ijodiy qobiliyatlariga ishonch bo'ladi. Mana shular kichik yoshdagi o'quvchilarni ijodiy shakllanishini rivojlanishidir. Ijod o'quvchilarni xotirasini aktivlashtiradi, fikrlashni kuzatuvchanlikni, maqsadga intilishni rivojlantiradi.

Musiqiy ijodkorlik fikrlash bilan birga emotsional aktivlikni hamda tez bir qarorga kelish qobiliyatlarini shakllantiradi. O'quvchilarni bu ijodi bu mustaqil faoliyati bilan bog'liqdir. Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilar ijodida asosan musiqiy amaliyotni o'rganish va qiziqtirishda namoyon bo'ladi.

Ijodiy faoliyatga tayyorlash 3 yo'nalishda kuzatiladi.

1. Hayotiy musiqiy tasassurotlar bilan boyitishda. Masalan: asarga ritmik, kirish qismini yaratish (o'rganiladigan qo'shiq asarlariga kirish qismi berilishi mumkin bu ijodiy harakat qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratiladi).

2. Bundan oldin o'qituvchi ko'rsatadi, keyin hamkorlikda qo'shiq tahlili va maqsadga yo'naltirilgan ijro rejasi aytiladi. Bu yaxshi tanish qo'shiqlar orqali tushuntiriladi. Bir xil va har xil ohang, har xil musiqiy obraz va musiqiy xarakterlarni ifodasiga bog'liq bo'lgan asarlar orqali o'quvchilarni ijodiy faoliyatga tayyorlash katta ahamiyatga ega. Masalan: ohang kuylarini variantlarini yaratish uchun, o'quvchi talaffuzi, ritmik tajriba va ohanglarini mavjudligini tushunishi lozim (she'r matni, musiqa ritmik tuzilishi).

3. O'quvchilarda ijodiy faoliyatlarini shakllantirishda ijodiy topshiriqlar katta rol o'ynaydi. Buni bajarish ko'proq o'qituvchiga bog'liqdir. O'qituvchi ijodiy topshiriqlarni taklif etishda o'yin formasini qo'llaydi. Topshiriqni bajarishda o'yin qoidalar va mazmun aytib turiladi. O'yin darsida emotsional hozirjavoblikni tashkil etishi kerak. Bu juda muhim bo'lib, o'quvchilarda ijodiy yo'nalishlarini shakllantiradi. O'qituvchi o'quvchining ijodiy rivojlanishiga katta ahamiyat berishi kerak. Musiqa tinglashda, qo'shiq ijro etishda, bolalar cholg'u asbobida jo'r bo'lishda va shuningdek, musiqiy ritmik harakat va boshqalar.

3-sinfda musiqa darslari. 1. Musiqa ifoda vositalari. 2. Musiqadagi dinamik belgilar.

Darsning borishi. a) o'quvchilarda yangi mavzularni tushuntirishdan avval o'tilgan mavzular mustahkamlanadi va darsda yangi mavzu oldingi mavzularga bog'lab o'tiladi. Ushbu darsda "Skarabey" texnologiyasi qo'llaniladi. Musiqa ifoda vositalari. Musiqa ifoda mazmunini yoritishda turli ifoda vositalaridan foydalaniladi. Ifoda vositalariga sur'at, usul,

tovush kabilar kiradi. Quyidagi 3 misolda musiqaning ifoda vositalaridan biri bo'lgan sur'atning kuyi kayfiyatiga qanday ta'sir etishini kuzating.

Quvnoq, o'rtacha va og'ir sur'atdagi asar parchalaridan o'quvchilarga tinglash uchun berilib, o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Musiqaning dinamik belgilari: kompozitorlar-biron – bir musiqa asarini yaratganlarida ularning ma'lum bir qismlarini kuchli yoki kuchsiz ijro qilinishini maxsus belgilar asarni yoqimli, jiloli eshitalishiga yordam beradi. Musiqada bu belgilar “dinamik belgilar” deb ataladi.

f – (forte) – kuchli

mf – (metso forte) – kuchliroq

c – (piano) – kuchsiz

mc – (metso piano) – kuchsizroq

So'ngra tarqatma materiallar orqali yangi mavzu mustahkamlanadi. Sinf o'quvchilari 3 guruhga bo'linadilar. Guruhlarga kartochkalar tarqatiladi va topshiriq tushuntiriladi. Guruhdagi o'quvchilarning vazifasi 1) sur'ati, tovush jo'shqinligi, tovush jarangdorliklarini quyidagi rasmda ko'rsatilgandek mustaqil joylashtirish. 2) o'quvchilarga o'qituvchi tomonidan musiqiy asarlar (quvnoq, nafis, kuychang) tinglash uchun beriladi. (audioyozuvda yoki ijro etiladi). Guruhlar shu musiqa mazmuniga mos ertak so'zlab berish.

Sur'ati: Tez

Tez

O'rtacha

Og'ir

Tovush jo'shqinligi

Quvnoq

***Yengil,
yorqin,
nafis***

Kuychang

Tovush jarangdorligi

f

mc

c

Har bir guruhning joylashtirilgan kartochkalari doskaga skoch yordamida ilinib qo'yiladi. Har bir guruhdan vakil chiqib guruhlarning musiqaga mos ertak mazmunini tushuntirib tahlil qilinib xulosa keltiriladi.

O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda qo'shiq kuylash va qo'shiq janrlarini tahlil qilish ham ijobiy natijalar beradi. Agar kuylash malakasi hosil qilish ishini, asosan o'rganiladigan qo'shiqning badiiy obrazi ustida olib boriladigan ishga bo'ysundirib olib borilsa, bu jarayon ancha muvaffaqiyatli bo'ladi. Qo'shiqning badiiy obrazi ustidagi ish bilan uning vokal tomoni ustidagi ish o'rtasida bir-biriga ikki yoqlama bog'liqlik bo'lishi kerak: ya'ni o'qituvchi qo'shiqning badiiy ijro etilishiga harakat qilishi bilan uning sof texnik tomoni ustida ham puxta ish olib boradi: o'qituvchi qo'shiqchilik malakasi bilan tarbiyalab badiiy obrazni mumkin qadar to'liqroq aniqlash uchun sharoit yaratadi. Sinfda o'rganiladigan har bir qo'shiq ifodali, yuksak badiiy, o'quvchilar tasvvuriga chuqur ta'sir qiladigan bo'lishi kerak. Agar qo'shiq o'quvchilarni qiziqтира, ularning ongiga emotsional ta'sir etsa, u vaqtda qo'shiq kuylash usullarining sof texnikaviy tomoni ustida olib boriladigan ish ularga zerikarli tuyulmaydi. Ko'pincha musiqa madaniyati darsi o'qituvchilari kuylash mashqlarini vaqtini bekorga oladigan narsa deb, unga nazar-pisand qilmaydilar, qo'shiq ustida olib boriladigan ishning o'zi maktab o'quvchilariga yetarli deb hisoblaydilar. Bunday qarashlar bilan ishlab bo'lmaydi, chunki bu metod qo'llanganda kuylash malakalari o'quvchilar tomonidan ancha kech o'zlashtiriladi. Musiqa o'qituvchisi maxsus mashqlarni tanlashda qancha ijodkor bo'lsa, u o'z maqsadiga shuncha tezroq erishadi.

Kuylash malakalari har bir musiqa darsidan ma'lum o'rin olishi kerak. Bu mashqlar juda xilma-xil bo'lishi mumkin, lekin hamma vaqt o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Kuylash malakalari ustida olib boriladigan ish metodlari o'quvchilarning yoshiga qarab, o'zgarib boradi. Boshlang'ich sinfda o'qituvchining mashqlarini o'z ovozi bilan ko'rsatishi asosiy metod hisoblanadi. 5-6 sinflardan boshlab esa, bolalar bu yoshda atrof – muhitga hiyla ongli munosabatda bo'lganliklari sababli, bu metod ancha o'zgaradi. Ovoz bilan ko'rsatish metodi bilan birga o'quvchilarning u yoki bu vokal – xor malakasini ongli idrok ettirish metodidan ham foydalanish juda muhim.

O'quvchilar umumiy o'rta ta'lim maktablarida qo'shiq kuylashni o'rganish jarayonida qay xildagi kuylash malakalarini hosil qilishlari kerak? Qo'shiq kuylash uchun qomatni rostlash, qo'shiq kuylashga xos nafas olish, tovush hosil qilish, diktsiya, soz, ansambl, bularning kuylash malakalaridir. Qo'shiq kuylashdagi holat 1-musiqa darsidan boshlab, o'quvchilarga kuylash malakalarining asoslari beriladi. Bu yerda eng asosiy musiqa, qo'shiq kuylash uchun qomadni rostlashni vujudaga keltirishdir. Qo'shiq kuylash uchun qomadni to'g'ri rostlash deganda, nimani tushunasiz? Bunda qo'shiq kuylayotganda gavda, bosh, oyoq va qo'lning qay holatda turishi lozimligini tushunamiz. Qo'shiq kuylash uchun qomadni to'g'ri rostlash, qo'shiq kuylashda nafasni bir tekis olish, qo'shiqni tabiiy erkin ravishda aytishni ta'minlaydi. Demak, o'qituvchi bunday malakani hosil qilishi uchun juda ko'p e'tibor berishi kerak.

Qo'shiq kuylash uchun qomadni to'g'ri rostdash nimalardan iborat? Ma'lumki, qo'shiqni tikka turgan holatda ijro etish eng qulay va ma'qul usul hisoblanadi. Bunda gavnani erkin, yelkani kerib, uni sal orqaga tashlash kerak. Ko'krak qafasni to'g'ri tutish lozim. O'quvchilar tik turib qo'shiq kuylayotganlarida gavnani bukmasdan va yelkalarni bukchaytirmasdan, qo'llarini erkin, bemalol pastga tushirgan, oyoqlarini sal yelka kengligidan kichikroq ochgan holda unga tayanib turishlariga e'tibor berish kerak. Boshini biroz, o'ziga qulay bo'lgan tabiiy holda ko'tarib turish lozim. Bu narsalarni doim kuzatib, eslariga solib turish, qo'shiq aytayotganda boshini qanday tutish lozimligini ko'rsatib turish zarur. Chunki, ba'zi bolalar boshlarini juda tik, ko'taradilar yoki pastga engashtirib turadilar.

Musika darslarida ko'pincha boshqacha holatlar ham qo'llaniladi. O'tirib qo'shiq kuylash holatida gava va boshning holati tikka turib qo'shiq aytish uchun qomatni rostdash holatiga o'xshaydi. Taxminan stulning chekkarog'iga, oyoqlarini tikka turib qo'shiq kuylagandagidek o'xshash bir-biridan sal ajratib tayanchini sezdirganroq qilib, o'tirishi kerak. Qo'llarni tizzaga qo'yish, kuylash ko'nikmasini tezda hosil qilib bo'lmaydi. Bolalar buni osongina tushunib bilib oladilar. U lekin, tezda eslaridan ham chiqadi. Shuning uchun o'quvchilar qo'shiq kuylayotganida qanday o'tirganliklarini doim kuzatishi lozim. Tajribali o'qituvchi biron bir qo'shiq o'rganilayotganida yoki mashq qilinayotganida va vaqt-vaqti bilan sinfga ba'zan esa alohida o'quvchilarga to'g'ri o'tirish qoidasini eslatib turadi. Agar bular bilan ketam-ket shug'ullanilmasa, bolalar qo'shiqni to'g'ri holatda ijro etishiga erishib bo'lmaydi.

Doimo o'quvchilarni qanday o'tirganliklarini kuzatib borish bilan o'qituvchi darsga uyushqoqlik ruhini kirgizadi. O'quvchilar o'zlarini yaxshi tutadigan diqqatini bir joyga to'playdigan bo'ladilar. Intizomli bo'lib boradilar. Bu ish ayniqsa, boshlang'ich sinflarda ko'p sabr-matонат talab etadi. Hamma vaqt qo'shiq kuylashga kirishdan oldin o'qituvchi bolalarga to'g'ri o'tirish kerakligini eslatishi zarur. O'rganilgan qo'shiqlarning eng yaxshisi tikka turib ijro etish ma'qul. Bunda ovoz to'liq jaranglab chiqadi. O'qituvchi bolalarni qo'shiq kuylash uchun o'rinlaridan turayotganida shovqinsiz, bejirimlilik bilan turishga o'rgatishi lozim.

Agar musika darsi maxsus jihozlangan binoda o'tkazilmasdan, oldin sinfda o'tkazilsa, o'quvchilar partadan shoshilmay osoyishtalik bilan chiqib o'z o'rindiqlari yonida tikka turishlari kerak.

Qo'shiq o'rganib bo'lingach, uni ijro etayotganda o'quvchilarning yuzlari ola-zarak bo'lmasdan, ifodali, ma'noli bo'lishi zarur. Yuzdagi mimika ijro etilayotgan qo'shiqning mazmuni va xarakterini aks ettirishi kerak.

Nafas olish. Qo'shiq kuylashdagi to'g'ri holat qo'shiq aytishdagi nafasni to'g'ri olish malakasini egallashning asosidir. Qo'shiq san'ati-bu nafas olish san'atidir deb qo'shiqchilar bejiz aytmaganlar. Bolalarning deyarli hammasi qo'shiq kuylayotganda nafas olishdan foydalanishni

bilmaydilar. Bolalar nafas olganlarida o'pkaning faqat yuqorigi qismigina havo bilan to'ldiriladi, bu esa yelkalarining sirtidan entikib-entikib ko'tarilishidan bilinib turadi.

Bolalar qo'shiqni kuylashi uchun nafas olishning eng qulay foydali tipidan ya'ni chuqur nafas olish usulidan foydalanishga o'rgatish kerak, bu holda o'pkalar havo bilan rosa to'ldiriladi. Bolalar nafas olishida yelkalarni qimirlatmay, osoyishta turishini doimo eslatib turish kerak. Agar o'quvchilardan birortasining nafas olayotganda yelkalari ko'tarilsa, o'qituvchi o'sha bolaning to'g'ri nafas olishiga yordamlashmogi lozim. Buning uchun o'qituvchi qo'llarini qo'shiq kuylayotgan bolaning ikki yelkasiga qo'yib turib, nafas olayotganida yelkalarining qimirlashiga yo'l qo'ymaydi. O'qituvchi bolalarga nafas olish vaqtida faqat yelkalarigagina e'tibor bermasdan qanday qilib yaxshi nafas olish lozimligini ham tushuntirishi zarur. Bolalar nafas olayotganlarida kaftlarini pastki qovurg'alarga qo'ya turib, bu holni o'zlari tekshirishlari mumkin. Agar nafas to'g'ri olinsa, pastki qovurg'a ko'tariladi. Kishi yotib nafas olganda ham shunday bo'lishini bolalarga tushuntirishi kerak.

Bolalarni to'g'ri nafas olishiga o'rgatish faqat qo'shiq kuylash uchungina zarur bo'lib qolmay, balki bolalarning sog'ligi uchun ham zarurdir.

Nafas olishning xarakteri va "sur'ati" ijro etiladigan asarga bog'liqdir. Agar qo'shiqni cho'zib, sekin-asta aytish kerak bo'lsa, chuqur va og'ir nafas olinadi. Agar qo'shiq sho'xchanroq bo'lsa, nafas ham tez va yengil olinadi. Masalan, J.Najmiddinovning "pianino", F. Nazarovning "paxtaoy" qo'shiqlarini ijro etish uchun har bir jumlaning boshlanishida bolalarning sekin-asta nafas olishlariga erishish mumkin.

Endi biz kuylash va musiqa tinglash orqali o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish hamda ularning ijrochilik, mahoratini oshirishdan sinf-konserti faoliyatini tashkil etish jarayoniga to'xtalamiz. Musiqa tinglash-o'quvchilarning nazariy va amaliy bilimlarini chuqurlashtirishda hamda ularning musiqiy did va tafakkurini rivojlantirishda muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Tinglash uchun turli shaklda bo'lgan musiqa namunalarini tanlash mumkin. Masalan, asar ansambl dasturidan o'rin olgan bo'lishi yoki umuman dasturga aloqador bo'lmasligi mumkin. Bundan ko'zlangan maqsad hal etuvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Jumladan, dasturga dahldor asar uni amaliy o'rganish nuqtai nazaridan ko'proq ahamiyatli bo'lsa, o'rganish uchun murakkab bo'lgan musiqiy namuna esa yuqori ijroviy mahorat va badiiy mukammallik jihatlarini idrok etishda qimmatlidir.

Musiqiy namunalarda rahbar ijrosida yoki ovoz taratish vositalari orqali tinglanadi. Albatta, bu jarayonda o'quvchilarning yoshi inobatga olinishi shart. Jumladan, 1-2sinf o'quvchilariga iloji boricha xalq orasida mashhur bo'lgan kuy-qo'shiqlarni eshittirish tavsiya etiladi. Masalan, bu asarlarni "alla", "Dilhiroj", "dutor bayoti", "omon yor", "lazgi", "qashqarcha", "norim-norim" kabi namunalar tashkil etishi mumkin. 3-4 sinf o'quvchilariga esa

nisbatan rivojlangan va murakkab tuzilishi namunalarini tinglay boshlaydilar. Chunki, bu yoshdagi o'quvchilar musiqa tinglash va uni idrok etishi borasida ma'lum malakalariga ega bo'lishgan bo'ladi. Shuni ham aytish lozimki, musiqa tinglash jarayonini o'lkada mashhur bo'lgan xalq san'atkori yoki folklor ansambli bilan ijodiy uchrashuv o'tkazish amaliyoti bilan bog'liq olib borishi yanada yaxshi natijalar beradi. Chunki, o'quvchilar "jonli ijro"dan chuqur taassurot oladilar.

O'quvchilarga quyidagi asarlarni tinglash tavsiya etiladi. "chaman yalla", "subhidam", "munojot", "Cho'li iroq", "Yovvoyi ushshoq", "Yovvoyi chorgoh", "Toshkent irog'i", "Soqii nomai savti kalon", "o'g'lima o'xshaydi ovozing sening", "Navro'zi ajam", "Miskin", "Nasrulla" va boshqalar.

Har chorak yakunida tashkil etiladigan sinf – konsert faoliyati asarlarni tahlil etishning amaliy natijasidir. Ijrochilarning zarur malaka mahoratining shakllanishi, o'zgartirilgan asarlar soni yetarli bo'lgach, shu xulosa asosda konsert dasturi tuziladi. Shbu dastur rang-barang va turli janrlarga taalluqli asarlarni o'z ichiga oladi. Ayniqsa, ilk bor konsert berish jiddiy sinov sifatida muhimdir.

Konsert ijrochiligi uchun o'quvchilarning sahnaga chiqishi, unda o'zini qanday tutishi lozimligi va boshqa zaruriy xarakterlar, rejissiyorlik tartibda mashq qilinadi. Har bir asar ijrosi badiiy yetilgan, uning konsert dasturi tartibidagi o'rni aniq belgilanadi va shu yo'l bilan konsert dasturi ham puxta ishlab chiqiladi.

Sinf-konsertiga maktab ma'muriyatini va ota-onalarni ham taklif etish mumkin. Konsert uchun sinf xonasi oldindan tayyorlab qo'yiladi. Ijrochilar musiqa o'qituvchisi va sinf rahbari tomonidan rag'batlantiriladi. Chorak yakunida o'tkaziladigan sinf-konsertlari turli bayram va mashhur sanalarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Biz ishimizning ushbu faslida Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishning o'ziga xos usul vositalarini yoritishga harakat qildik. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqa tinglash va kuylash faoliyatlari bilan bir qatorda o'quvchilar tomonidan dars jarayonida tashkil etilgan sinf-konsertlarining ham o'rni alohidaligi o'rganib chiqildi. Xullas, musiqa faoliyatlarining barchasi o'qituvchi tomonidan to'g'ri tashkil etilsagina o'quvchilarda musiqiy his-tuyg'ularni rivojlanish va takomillashib borishi ijobiy samara berishi tadqiqotimiz natijasida o'z tasdig'ini topdi.

Xulosa.

Musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarning psixologik-fiziologik xarakterlariga oid hamda yosh xususiyatlariga mos musiqiy asarlarni o'rganishni tahlil qilish va ta'lim jarayoniga samarali qo'llash musiqqa madaniyati darslarini sifat va samaradorligini oshirishda o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini yanada rivojlantirish hamda takomillashtirishda ijobiy samara beradi. Bu esa musiqqa madaniyati dars faoliyatlarini to'g'ri tashkil etishni taqozo etadi. O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirishda musiqqa asarlarini eshitish, tinglash, kuylash hamda oddiy tahlil qila bilish katta ahamiyatga ega. Biz o'z bitiruv malakaviy ishimizda musiqqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'usini rivojlantirishning nazariy va amaliy jarayonlarini didaktik talablar asosida yaratilishiga harakat qildik. Tadqiqotning nazariy va tajriba sinovi qismlarida olib borilgan tahlil natijalariga tayanib, quyidagi xulosalarga keldik.

O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda darsning barcha faoliyatlari asosiy vosita sifatida o'rganildi va tahlil qilindi.

Musiqqa madaniyati darslarini tashkil etgan faoliyatlarga oid ma'lumotlar to'plandi.

Musiqiy tuyg'uni rivojlantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari hamda psixologik-fiziologik xarakterlariga mos bo'lgan musiqiy asar namunalari tanlab olindi va nota ishlanmalari ilova qilindi.

Markaziy Osiyoda ijrochilik san'atining shakllanishi borasida Sharq olimlarining nazariy qarashlari o'rganib chiqildi.

O'quvchilarning musiqiy tuyg'usini rivojlantirish va takomillashtirishda musiqa faoliyatlari tarkibidagi asarlarning kuy-ohang tuzilishi va badiiy g'oyaviy mazmuni tahlil qilindi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishning shakl, usullari ishlab chiqildi va manbalar asosida yoritildi.

Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlanishiga doir usul va yo'llari ishlab chiqildi, natijalari umumlashtirilib o'rganildi va tahlil qilindi.

O'quvchilarning musiqiy his-tuyg'ularini rivojlantirish va takomillashtirishda dars faoliyatlari davomida tinglash hamda kuylash uchun berilgan asarlarning ijro taasurotlari yuzasidan o'rganildi va shu asosda suhbatlar tashkil etildi.

Dars mashg'ulotlari davomida tinglash kuy va qo'shiq matnlarini o'quvchilar tomonidan oddiy, tahlil qilishga doir bilim va malakalar shakllantirildi.

Bitiruv malakaviy ishidan umumiy o'rta ta'lim maktablarining "musiqa madaniyati" darslarida, bolalar musiqa san'at maktablari va san'at maktablari va san'at hamda pedagogika kolejlarning musiqa metodikasi darslarida shuningdek, shu mavzuga oid bitiruv malakaviy ishlarda qo'shimcha ma'lumot sifatida foydalanish tavsiya etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida"

2. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”. Toshkent. “Ma’naviyat” – 2009 yil.
3. Karimov I.A. “Barkamol avlod orzusi”. Toshkent. “O’qituvchi” nashriyoti – 1999 yil.
4. Karimov I.A. “O’zbekiston buyuk kelajak sari”. Toshkent. “O’zbekiston” nashriyoti – 1998 yil.
5. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O’zbekiston taraqqiyotining poydevori”. Toshkent – 1997 yil.
6. “Ta’lim to’g’risidagi qonun”. Toshkent. “O’zbekiston” – 1997 yil.
7. Umumiy o’rta ta’limining Davlat ta’lim standarti va o’quv dasturi. Musiqa “Sharq” nashriyot – matbaa konserni. 1999 yil, 6 – maxsus son.
8. O’zbekiston respublikasi Prezidentining farmoni “Respublikada musiqiy ta’limni, madaniyat va san’at o’quv yurtlari faoliyatini yaxshilash to’g’risida” – 1996 yil 31 dekabr.
9. Abralova M, Shamsiyeva Z,. Musiqa madaniyati. Uzviylashtirilgan o’quv dasturini joriy etish bo’yicha tavsiya va taqvim mavzu rejalar. (1-7 sinflar) T,. – 2010 yil.
10. Akbarov A.I. Musiqa lug’ati. T.; G’.G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1997 yil.
11. Nurmatov H, Norxo’jayev N. “Musiqa alifbosi” 1-sinf uchun darslik 2-nashr. Toshkent “O’qituvchi” 1999 yil
12. Nurmatov H, Norxo’jayev N, Mirrahimov A. “Musiqa 2-sinf uchun darslik”, G’.G’ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, Toshkent 2001 yil.
13. Nurmatov H, Norxo’jayev N, Mirrahimov A. “Musiqa 2-sinf uchun darslik”, 6 nashri. G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. – 2006 yil.
14. Nurmatov H, Norxo’jayev N, “Musiqa 3-sinf uchun darslik”, 6 nashri. G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2007 yil.
15. Ibrohimov O. “Musiqa 4-sinf uchun darslik, qayta ishlangan va to’ldirilgan nashri” G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2007 yil.
16. Mansurov A., Karimova D. “Musiqa” 5-sinf uchun darslik G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2001 yil.
17. Begmatov S., Mamerov Q., Mansurov A, Karimova D., “Musiqa 6 sinf uchun darslik” G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2004 yil.
18. Ibrohimov O., Sadirov I. “Musiqa 7-sinf uchun darslik” 3 nashri G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2004 yil.
19. Nurmatov X., Norxo’jayev N “Musiqa alifbosi” 1-sinf uchun darslik. T.: G’.G’ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2008 yil.

20. Nurmatov X., Norxo'jayev N "Musika alifbosi" 2-sinf uchun darslik. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2008 yil.
21. Nurmatov X., Norxo'jayev N "Musika alifbosi" 3-sinf uchun darslik. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2008 yil.
22. Nurmatov X., Norxo'jayev N "Musika alifbosi" 4-sinf uchun darslik. T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. Toshkent. 2008 yil.
23. www.kitob.uz
24. www.student.biz.uz
25. www.ziyonet.uz
26. www.darakchi.uz
27. www.muloqot.uz
28. www.ziyo.net.uz

ILOVALAR



Rasmlarda aks ettirilgan YAKKAXON, YAKKANAVOZ, CHOLG'UCHILAR va XONANDALAR dastalarini o'zingiz aniqlang.



Qo'shiq tinglaymiz

VATANJONIM – VATANIM

P. Mo'min she'ri

D. Omonullayeva musiqasi

O'rtacha tez



Vatanjonim—Vatanim,
Ko'zim quvnab ko'rganim.
Istiqloldan kulganim,
O'zbekiston — gulshanim!

Bahra olib bag'ringdan,
Ulg'ayaman mehringdan.
Vatanjonim — Vatanim,
O'zbekiston — gulshanim.



Qo'shiq tinglang

BAHOR

K. Rahim she'ri

Ik. Akbarov musiqasi

Cha-man-cha-man o-chi-lar ba-hor cho-g'i
gul-lo-la. Gul-ni yax-shi ko-ra-di
kat-ta-ki-chik har bo-la. Ket-gan qush-lar
u-zoq-dan ya-na biz-ga qay-ta-di. Kur-tak och-gan
shox-lar-da say-rab qo'-shiq ay-ta-di.

Chaman-chaman ochilar
Bahor chog'i gul-lola.
Gulni yaxshi ko'radi
Katta-kichik har bola.

Bahor chog'i ko'p yaxshi,
Ariq to'lib suv oqar.
Mayin yelgan shabada
Badanlarga xo'b yoqar.

Ketgan qushlar uzoqdan
Yana bizga qaytadi.
Kurtak ochgan shoxlarda
Sayrab qo'shiq aytadi.

Uchib o'tar osmondan
Gala-gala suxsur, g'oz.
Go'zal bahor ketidan
Yetib kelar issiq yoz.





REBUS

Quyidagi so'zlarni aniqlang:



- vruq	- kord	- sol	- rzand
- ist	venti - tor	- gir	- vul
- no	- chqon	Ga-	- ishtir
- rosat	- yov	- zavor	- ston

Do

Si

Mi

Re

Lya

Fa

Sol





=




BU'UN NOTA



=




YARIM NOTA



=



CHORAK NOTA



=



NIMCHORAK
NOTA

